Matematika

I qism

3



novda

I.V.Repyova

Matematika

3-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANDI PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANDI

novda
edutainment

Toshkent – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
O‘RTA TA’LIM
MARKAZI
№ 84
18.10.2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 51(075.3)
KBK 22.1ya72
R 42

I.V.Repyova
Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism. / I.V.Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 128 b.

Taqrizchilar:

Sh.Y.Muslimova – Toshkent shahri 328-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M.A.Raxmanova – Toshkent shahri 256-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

Sh.X.Ergasheva – Toshkent shahri 275-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar


Yozma bajaring


Juft bo'lib ishlang


Og'zaki bajaring


Mantiqiy topshiriq


Uyga vazifa

Eslatma: O'lchov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-sonli qaroriga muvofiq foydalanildi.

ISBN 978-9943-9684-5-5

© I.V. Repyova
© "Novda Edutainment", 2023

Muqaddima

Aziz bolajonlar! Siz matematika nafaqat hisob-kitob, balki matematik qonun va qoidalar haqidagi fan ekanini allaqachon bilib oldingiz. Qo'lingizdagi uchinchi sinf kitobining birinchi qismida ham ko'plab sonlarni o'rganasiz. Sonlar qanchalik murakkab va katta bo'lmasin, ularni qo'shish, ayirish va ko'paytirish qoidalari doimo bir xil ekanligini tushunasiz. Shuningdek, siz atrofingizdagi olam, Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi hududi, undagi shaharlar, ajoyib boyliklar haqida tushunchaga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, iqtisod – xo'jalik yuritish va biznes sohalari bilan tanishasiz.



1. Takrorlash. 1 dan 100 gacha sonlar





Yondosh mavzu:
O‘zbekiston Respublikasi

Ikki xonali sonlar,
amallarning hadlari,
amallarning xossalari

1. Hisoblang.

90 + 60	80 + 30	140 – 70	150 – 80
70 + 50	80 + 90	130 – 40	130 – 70

2. Ustun ko‘rinishida yeching.

28 + 35	42 – 19	54 + 39	67 – 8	49 + 4	71 – 26



Sonlarni xonalari bo‘yicha qo‘shish kerak. Agar xonadagi raqamlar yig‘indisi 10 dan katta bo‘lsa, bu xonada yig‘indining birliklari qoldiriladi, o‘nliklar soni esa keyingi xonaga qo‘shiladi.

3. Tenglamalarni yeching. Jadvaldan tenglamalarning ildizlariga mos keladigan harflarni toping. Toshkent shahri qadimda qanday atalgan?

$x + 46 = 100 - 18$
$y - 25 = 50 - 12$
$81 - z = 100 - 55$

O	E	I	Ch	N	T	Sh
63	65	13	38	35	34	36

4. 3 va 4 raqamlaridan tashkil topgan ikki xonali sonlar yig‘indisini toping.

5. Masalani yeching.
Toshkent va Peterburg – nomdosh shaharlar. Ularning nomi "tosh shahar" degan ma'noni anglatadi. Toshkent 22 asrdan, Peterburg esa 3 asrdan beri mavjud. Qaysi shahar qadimiyroq va qancha oldin tashkil topgan?





6. Qulay usulda yeching.

T	23 + 49 + 17
O'	100 – 14 – 16
A	19 + 34 – 14
E	58 + 66 + 34
Q	82 – 15 – 25
Y	48 + 17 – 38


Ikki xonali javoblarni kamayish tartibida qo'yib chiqing. O'zbekiston daryolari bo'yida joylashgan chakalaklzor qanday ataladi?

7. O'zbekiston tabiati qanday geografik zonalardan tashkil topganini aniqlang. Qaysi zona maydoni bo'yicha eng katta? Qaysi biri eng kichik?



1. Takrorlash. 1 dan 100 gacha sonlar

8. O‘zbekiston Respublikasining umumiy maydoni qancha? Hisoblang.



9. Qulay usulda hisoblang. O‘zbekiston hududi qadimda qanday atalganini aniqlang.

O	(27 + 83) – 13	**M**	36 – (16 + 9)
V	45 + 19 – 9	**N**	13 + 46 + 14
A	22 + 39 + 18	**R**	25 + 58 – 15
U	80 – 15 – 15	**H**	100 – 27 – 13

11	97	55	79	68	97	50	73	73	79	60	68

Bu o‘lka haqida kitoblar va internetdan ma’lumotlar toping.

10. Tenglamalarni yeching.

$x + 78 = 9 \cdot 9$ $\qquad$ $57 + t = 8 \cdot 9$

$y - 43 = 8 \cdot 7$ $\qquad$ $71 - z = 7 \cdot 6$

Yondosh mavzu:
Toshkent

Uch xonali sonlar,
amallarning xossalari





1. Amallarni bajaring. Uch xonali sonlarni kamayish tartibida qo'yib chiqing va Toshkentning yana bir qadimgi nomini bilib oling.

B 152 + 227 **I** 208 + 192 **N** 277 + 277
E 357 – 123 **K** 908 – 152 **T** 600 – 327

379	400	554	756	234	554	273

2. Qo'shishning o'rin almashtirish va guruhlash xossalarini eslang.

305 + (195 + 18) 468 + (123 + 132) 649 + (61 + 51)

3. Yig'indidan sonni ayirish xossasini eslang.

(280 + 153) – 260 (327 + 184) – 127 (541 + 195) – 241

4. Sondan yig'indini ayirish xossasini eslang.

778 – (250 + 178) 760 – (160 + 375) 363 – (63 + 125)

5. Amallarni hisoblamay taqqoslang.

267 + 245 ☐ 267 + 275 567 – 389 ☐ 680 – 389
438 + 167 ☐ 348 + 125 700 – 167 ☐ 700 – 340

6. Masalalarga ifodalar tuzing.

a) Toshkent kurantining ikkinchi minorasi birinchisidan 62 yil keyin qurildi. Eski minora qurilganiga 75 yil bo'ldi. Yangi minora qurilganiga necha yil bo'ldi?

b) Toshkentdagi eng baland inshoot teleminoradir. Uning balandligi 375 m. Milliy bank binosining balandligi esa 108 m. Teleminora bank binosidan qancha baland?

7. "Mustaqillik" maydonidagi favvora hovuzi to'g'ri to'rtburchak shaklida. Uning bo'yi 114 m, eni 50 m ga teng. Favvoraning perimetri bo'ylab tortiladigan diodli tasmaning uzunligi qancha bo'ladi?



8. Ushbu favvoralardan qaysilari ko'pburchak shaklida?




9. Toshkentning "tug'ilgan kuni" bor. Birinchi tenglamani yechib, uning tashkil topgan sanasini, ikkinchi tenglamadan esa tashkil topgan oyining tartib raqamini bilib oling.

$x + (278 + 366) = 980 - 319$ $(180 - 63) - y = 654 - 545$

10. Toshkent metropolitenida 43 ta bekat bor. Bu Barselonadagidan 144 ta, Shanxaydagidan 370 ta bekat kam. Barselona metrosida stansiyalar soni Shanxaydagidan nechta kam?

11. 1, 2, 0 raqamlaridan har xil uch xonali sonlar tuzing. Nechta son hosil bo'ldi?

12. Doiralarga 1 dan 7 tagacha bo'lgan sonlarni shunday qo'yib chiqingki, hech qaysi qo'shni sonlar bir-biri bilan tutashmasin. Masalan, 3 soni 2 va 4 sonlari bilan tutashishi mumkin emas.



13. Hisoblang. Javoblarni ortib borish tartibida qo'yib chiqing va aholisi ko'p bo'lgan katta shaharlar qanday atalishini bilib oling.

L	236 + 175	**M**	286 – (156 + 28)
P	721 – 368	**O**	(222 + 178) – 18
E	400 – 125	**A**	600 – 163 – 137
S	365 + (35 + 296)	**G**	(472 + 189) – 372
I	102 + (227 + 198)		

14. Tenglamalarni yeching.

$(80 + 32) + x = 467$ $\quad$ $(398 + 83) - y = 220$

$z - (420 - 73) = 134$ $\quad$ $b + (561 - 182) = 703$

3. Takrorlash. Uzunlik






Yondosh mavzu:
O‘zbekiston tabiati

Minglar,
uzunlik birliklari

1. Bu uzunlik birliklari orasida qanday bog‘liqlik borligini eslang.



6 santimetr necha millimetrga teng?
3 detsimetr necha santimetrga teng?
7 metr necha detsimetrga teng?
5 kilometr necha metrga teng?

2. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

7 m 2 dm 3 cm = ... cm
6 m 5 cm = ... cm
30 dm = ... m

3 dm 4 cm 8 mm = ... mm
9 dm 8 mm = ... mm
800 cm = ... m

3. Rasmdagi siniq chiziqlarning ranglarini ayting. Ularning uzunligini santimetr va millimetrlarda toping.



4. Hisoblang. Taqqoslang.

1 m 6 dm 2 cm + 3 m 8 dm 5 cm ☐ 55 dm 8 cm

7 dm 5 cm 3 mm – 4 dm 2 cm 5 mm ☐ 2 m 47 cm

6 dm 5 cm – 5 dm 2 mm ☐ 27 mm

3 m 2 dm + 4 dm 8 cm ☐ 8 m 52 cm

8 m – 3 m 4 dm 5 cm ☐ 5 m 2 cm – 4 dm


2 cm + 3 dm 92 mm ☐ 70 cm – 3 dm 2 mm

5. Sayyohlik yo'nalishining birinchi qismi 247 km ga teng. Ikkinchi qismi birinchisidan 67 km uzunroq. Butun yo'nalish uzunligini toping.

6. Jadvalda berilgan ma'lumotlarga qarab, savollarga javob bering. 1960-yildan 2010-yilgacha suv sathi qanchaga kamaydi? Agar o'n yil davomida u yana 2 metrga pasaygan bo'lsa, 2020-yilda suv sathi necha metr bo'ldi?

Yil	Suv sathi, m
1960	53
1970	51
1980	44
1990	36
2000	30
2010	28
2020	

Orol dengizi xaritasi




7. Kesmalarning uzunligini toping.





8. Berilgan ma'lumotlar bo'yicha yashirilgan sonni toping.



U sahro va tog'larda bor.
U dengizda yo'q.
U beshdan katta.
U juft emas toq son.

9. Amallarni bajaring. Javoblardan faqat uch xonali sonlarni tanlab oling va ularni ortib borish tartibida qo'yib chiqing. O'zbekistonda kattaligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turuvchi ko'l qanday ataladi?

O	912 – 486	**Z**	129 + 153
E	825 – 778	**K**	168 + 165
I	357 – 282	**N**	600 – 158
U	56 + 159	**T**	756 – 627

10. Hisoblang va taqqoslang.

a) 3 m 6 dm 5 cm + 5 m 7 dm 8 cm ☐ 8 m 9 dm 4 cm
b) 8 dm 2 cm – 4 dm 3 cm 5 mm ☐ 4 dm 6 cm 1 mm
d) 3 km 400 m ☐ 4 km 100 m
e) 6 km 250 m ☐ 2 650 m
f) 45 dm 7 cm + 2 m 33 cm ☐ 7 m 3 dm 2 cm
g) 9 dm 42 mm – 36 cm 8 mm ☐ 5 dm 2 cm 4 mm

Yondosh mavzu:
O‘zbekiston faunasi

Jadvalli ko‘paytirish





1. Qo‘shishni ko‘paytirish bilan almashtiring. Qulay usulda hisoblang.

O 2 + 2 + 2 + 2 + 2
I 4 + 4 + 4
U 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3
Q 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6
L 5 + 5 + 5 + 5
N 9 + 9 + 9 + 9 + 9

Bu yerda qanday jonivor nomi yashiringanini toping.

42	21	20	10	45


2. Ko‘paytirish jadvali bo‘yicha jonivorlar rasmi ostida qanday sonlar yashiringanini aniqlang.

	5	6	7	8	9
5					
6					
7					
8					
9					

3. Amallarning bajarilish tartibini ko‘rsating. Ifodalarni hisoblang.

a) $90 \cdot 8 + 210 : 70 - 7 \cdot 50$
b) $(650 - 330) : 80 \cdot 7$
d) $900 - ((560 - 60 \cdot 9) + 90)$

4. Chizmaga mos keladigan ifodani tanlang. Uning qiymatini hisoblang.



5. Hayvonot bog‘idagi qafasda 12 ta oqqush, undan 2 marta kam baliqchi qush bor. Agar qafasda jami 35 ta qush bo‘lsa, ularning nechtasi saqoqush?

6. Tushirib qoldirilgan sonlarni qanday topish kerak?


Ko‘paytuvchi	7		4
Ko‘paytuvchi	80	5	
Ko‘paytma		200	160

Bo‘linuvchi	630	560	
Bo‘luvchi	9		8
Bo‘linma		80	30

7. Tenglamalarni yeching.

$x + 70 \cdot 5 = 988 - 137$ $\qquad$ $60 \cdot 9 - y = 167 + 239$

8. Hasharotlar qutining qaysi qismini egallashiga qarab, qutilarga joylashtiring.









9. Har bir keyingi son avvalgi ikki sonning yig‘indisiga teng. Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

a)

7	13	20		

b)

6		18		

d)

12	11			

e)

	9	25		

10. Qora ilonning uzunligi 7 dm, kobraning uzunligi esa undan 3 m 5 dm ko‘proq. Kobra qora ilondan necha marta uzun?

11. Ifodalarning qiymatini hisoblang va O‘zbekistonda uchraydigan zaharli ilonlar nomini bilib oling.

A	$3 \cdot 9 + 15$	**N**	$80 - 8 \cdot 6$	**T**	$52 + 4 \cdot 3$
Q	$(13 + 7) : 10$	**Sh**	$9 : 3 + 5 \cdot 7$	**O**	$(40 - 10) : 3$
M	$16 \cdot 2 : 8$	**L**	$16 - 8 \cdot 2$	**U**	$64 : 8 \cdot 9$
I	$45 + 15 : 5$	**R**	$60 - 7 \cdot 7$	**Ch**	$81 : 9 - 3$

2	42	0	2	10	32	64	72	4	38	72	2

2	10	11	42	48	0	10	32

5. Takrorlash. 0 va 1 sonlarining xossalari





Yondosh mavzu:
Qizil kitob

Ko'paytirishning xossalari,
0 va 1 sonlarining xossalari

1. Sonlarni eng kichigidan boshlab shunday aytingki:
a) har bir keyingi son avvalgisidan ikki marta katta bo'lsin;
b) har bir keyingi son avvalgisidan uch marta katta bo'lsin.
Qaysi sonlar aytilmay qoldi?



2. Hisoblang. Qiymati 50 dan katta bo'lgan javoblarni ortib borish tartibida joylashtiring va O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan hayvonning nomini bilib oling.

A	$7 \cdot 4$	**K**	$5 \cdot 10$	**O**	$7 \cdot 9$
N	$10 \cdot 9$	**V**	$8 \cdot 8$	**T**	$4 \cdot 8$
S	$9 \cdot 8$	**S**	$3 \cdot 17$	**I**	$9 \cdot 9$
L	$8 \cdot 7$	**I**	$6 \cdot 9$	**G**	$6 \cdot 7$

3. Amallarni bajarmay taqqoslang.

$173 \cdot 0 \square 0 \cdot 273$	$638 : 638 \square 645 : 645$
$256 : 1 \square 256 \cdot 1$	$0 : 295 \square 0 \cdot 295$
$x : 1 \square x \cdot 0$	$y \cdot 1 \square y \cdot 0$

4. Gaplarni davom ettiring. Har bir ta'rifga mos qoidani tanlang.

Har qanday son 1 ga ko'paytirilsa, ...	$0 : a = 0$
Har qanday son 0 ga ko'paytirilsa, ...	$0 \cdot a = 0$
Nol har qanday songa bo'linsa, ...	~~$a : 0$~~
Nolga bo'lish ...	$a \cdot 1 = a$

5. Tenglamalarni yeching.

$x \cdot (42 - 41) = 118 + 121$ $\qquad$ $845 - y : 12 = 319 + 526$

6. Azim noyob hayvonlar haqidagi kitobni 3 kunda o'qidi. U birinchi kuni 142 bet o'qidi, bu ikkinchi kun o'qiganidan 15 bet ko'p. Agar kitob 356 betdan iborat bo'lsa, u uchinchi kuni necha bet o'qigan?

7. Blits savollar. Ifodalar yozing.

a) Har bir uyada b tadan qushcha bor. Yettita uyada nechta qushcha bor?

b) Har bir tuyaga m chelak suv kerak. Oltita tuya uchun qancha suv keltirish kerak?

d) O'tgan asrning oxirida O'zbekistonda d ta oq panjali Tyan-Shan ayiqlari bo'lgan. Hozirda ular ikki marta kam. Ayiqlar soni qanchaga kamaydi?

e) Qo'riqxonada t ta jayron bor, kiyiklar esa ulardan 3 marta ko'p. Qo'riqxonada jami nechta jonivor bor?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIM BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 904
15- 10 2023 y.

8. Jadvalda O‘zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar turlarini ko‘ryapsiz. Unda jami nechta hayvon bor? Yozing va hisoblang.

				
77 ta tur	18 ta tur	16 ta tur	48 ta tur	25 ta tur

9. Hisoblang.

$6 \cdot 7 - 13$	$45 : 5 + 64$	$27 : 9 + 18 : 6$
$(56 - 44) : 3$	$81 : (17 - 8)$	$(25 + 24) : 7$

10. Kiyik 2 bog‘lam pichanni yeb bo‘lgunicha, qulon 7 bog‘lam pichan yeydi. Qulon 3 bog‘lam pichanni yegunicha, tuya 5 bog‘lam pichan yeydi. Ma’lum vaqt oralig‘ida kiyik va qulon 27 bog‘lam pichan yegan bo‘lsa, shu vaqt ichida tuya qancha pichan yegan?

11. Amallarni bajarishning to‘g‘ri tartibini ko‘rsating. Hisoblang.

a) $8 \cdot 9 + (14 + 34) : 6 - 19$

b) $152 - ((60 + 3) : 9 \cdot 4 + 11)$

12. Hayvonot bog‘ida bitta ayiqqa kuniga 6 kg sabzavot, 3 kg meva, 4 kg yorma hamda 3 kg o‘t kerak. To‘rtta ayiqqa qancha sabzavot, meva, yorma va o‘t kerak bo‘ladi?

Yondosh mavzu:
O‘zbekiston florasi

10 va 100 ga ko‘paytirish,
yaxlit sonlar





1. Sanang.



2. Qo‘shishni ko‘paytirish bilan almashtiring.
Har bir ifodaning qiymatini toping.

10 + 10 + 10
10 + 10 + 10 + 10 + 10 + 10 + 10 + 10
100 + 100 + 100 + 100
100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100

3. 10 ga va 100 ga ko‘paytirish qoidasini eslang.
Hisoblang.

A 7 · 10	**D** 3 · 100	**R** 70 · 10	**N** 200 · 1
K 60 : 10	**O** 800 : 100	**I** 500 : 10	**R** 40 : 1

Sonlarni ortib borish tartibida joylashtiring va kashnich o‘simligi yana qanday atalishini aniqlang.

6. Takrorlash. Nol bilan tugaydigan sonlar



Yaxlit sonlar qanday ko‘paytirilishini eslang.

$50 \cdot 70 = 5 \cdot 10 \cdot 7 \cdot 10 = 5 \cdot 7 \cdot 10 \cdot 10 = 35 \cdot 100 = 3\,500$

4. Amallarni yuqoridagi namuna bo‘yicha bajaring. Bu yerda ko‘paytirishning qanday xossasini ko‘rish mumkin?

$40 \cdot 30$	$50 \cdot 20$	$90 \cdot 70$
$70 \cdot 60$	$90 \cdot 30$	$50 \cdot 20$

5. Har bir yashikda 10 ta gul ko‘chati bor. 30 ta yashikda nechta rayhon ko‘chati bor? 50 ta yashikdagi yalpiz ko‘chatlari soni nechta? Hamma ko‘chatlar nechta?

6. Gul do‘konida katta guldonda 46 ta atirgul, kichik guldonda 25 ta atirgul bor. Chinnigullar soni atirguldan 10 marta ko‘p. Atirgul chinniguldan nechta kam?

7. Har bir navbatdagi misol avvalgi misolning javobidan boshlanishi uchun misollar qanday tartibda bo‘lishi kerak?


$23 + 47$ | $7 \cdot 9$ | $7 + 16$ | $70 : 10$ | $56 : 8$ | $63 - 7$

8. Tenglamalarni yeching.

$70 \cdot x = 237 + 61 \cdot 3$ $\qquad$ $640 : y = 197 - 13 \cdot 9$

9. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 12, 18, 35 sonlaridan foydalanib, har birining natijasi 40 ga teng bo‘lgan uchta tenglik tuzing.

10. Tuvaklarni kataklarga shunday joylashtiringki, ustun va qator bo'ylab 15 tadan gul tursin.



11. Bu o'simlikni faqat O'zbekiston hududida uchratish mumkin. Uning nomini bilish uchun ifodalarning qiymatini hisoblang.

E	$7 \cdot 20$	**J**	$90 : 30$
I	$143 - 117$	**N**	$80 \cdot 3$
O	$63 + 71$	**R**	$(35 - 29) \cdot 3$
U	$720 : 9$	**T**	$630 : 3 : 30$
D	$15 + 45$	**G'**	$200 : 40 \cdot 6$
F	$83 - 25$	**V**	$17 \cdot 3 \cdot 2$



60	140	240	134	102

3	80	58	7	80	18	80	30	26

12. 11-topshiriqdagi o'simlik O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan bo'lib, faqat Surxondaryo viloyatida o'sadi. Uni o'rgangan uch biologning har biri bu o'simlikdan nechta uchratganini ma'lum qildi. Birinchi biolog bu o'simlikning 54 tasini, ikkinchisi undan 17 ta ko'p uchratdi. Agar olimlar jami 180 ta o'simlikni ko'rgan bo'lsa, uchinchi biolog nechtasini uchratgan?

7. Takrorlash. Taqsimot xossasi





Yondosh mavzu:
Foydali qazilmalar


Ko‘paytirishning xossalari, taqsimot xossasi

1. Keyingi ikkita sonni ayting.

7, 14, 21, 28, ...
81, 72, 63, ...
101, 212, 323, ...
10, 21, 32, 43, ...

2. O‘ylab ko‘ring, sonlarda qanday umumiylik bor?

a) sariq katakda;
b) qizil katakda.




3. Amallarni bajaring.

$70 \cdot 40$
$6 \cdot 3 \cdot 5$
$(20 + 7) \cdot 5$
$60 \cdot 80$
$7 \cdot 15 \cdot 4$
$8 \cdot (60 + 3)$

4. O‘zaro teng ifodalarni toping.

$a \cdot 0$
$a \cdot 1$
$1 \cdot a$
$0 \cdot a$
$a - a$
$a : 1$
$0 : a$

5. Diagrammani o‘rganing. Yozuvlarni tegishli qismlar bilan tutashtiring.



6. Berilgan ma’lumotlardan foydalanib, qaysi davlat qancha oltin qazib olganini aniqlang.

2020-yilda qazib olingan oltin

1	Xitoyda		368 tonna
2	Rossiyada	Xitoyga qaraganda 37 tonna kamroq	
3	Avstraliyada	Kanadaga qaraganda 157 tonna ko‘proq	
4	AQShda	Ganaga qaraganda 51 tonna ko‘proq	
5	Kanadada	Rossiyaga qaraganda 160 tonna kamroq	
6	Ganada	Rossiyaga qaraganda 192 tonna kamroq	
7	Braziliyada	Avstraliyaga qaraganda 221 tonna kamroq	
8	O‘zbekistonda	Braziliyaga qaraganda 5 tonna kamroq	

7. Ifodalarning qiymatini toping. Uch xonali javoblarni kamayish tartibida qo'yib chiqing va tegishli harflarni yozib, yashirin so'zni toping.


R	$28 \cdot 8$	**E**	$41 \cdot 6$	**M**	$91 \cdot 7$	**N**	$87 \cdot 3$
Y	$16 \cdot 6$	**L**	$37 \cdot 5$	**I**	$45 \cdot 8$	**A**	$95 \cdot 2$

8. Geologiya muzeyida og'irligi 26 kg bo'lgan 3 ta va og'irligi 28 kg bo'lgan 5 ta mineral turibdi. Bu eksponatlarning umumiy massasi qancha?

9. Qimmatbaho toshlar qulflangan qutida saqlanadi. Ifodaning qiymatini toping va qulf kodini bilib oling.

$$768 - (345 + 600 : 30 \cdot 9) + 98$$

10. Minerallar saqlanadigan javon tomonlari 1 m bo'lgan kvadrat yashiklardan iborat. Uni rasmdagi kabi bezash uchun qizil tasma sotib olish kerak. Necha metr tasma kerak bo'ladi?



11. Hisoblang.


$50 \cdot 7 + 325$	$71 \cdot 6 - 5 \cdot 42$	$2 \cdot 23 \cdot 4$
$130 + 60 : 3$	$22 \cdot 4 + 420 : 7$	$3 \cdot 13 \cdot 5$

12. Uzuklar va ziraklar ko'pincha yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatiladi. Zargar 18 ta uzukni yoqut bilan va undan ikki marta ko'p uzukni feruza bilan bezatdi. Zargar jami nechta uzukni bezagan?


Yondosh mavzu:
Ob-havo va iqlim

Soat va minut,
siferblat





1. Havoning harorati gradusda o'lchanadi. Yog'ingarchiliklar – yomg'ir yoki qor qatlamining qalinligi bo'yicha millimetrda o'lchanadi. Diagrammani o'rganing.



a) Eng issiq oy qaysi?
b) Qaysi oyda yog'ingarchilik eng kam yuz beradi?
d) Sentabrda havoning o'rtacha harorati qanday bo'ladi?
e) Mart oyida necha millimetr yog'ingarchilik bo'lgan?

2. Quyidagi masalalarni yechish uchun ifodalar tuzing. Ularning qiymatini hisoblang.


a) O'zbekistonda bir yilda 248 kun havo ochiq bo'ladi. Bir yilda necha kun bulutli ob-havo bo'ladi?

b) Iyulda harorat kunduzi 38 gradusgacha ko'tariladi, tunda esa 23 gradusga tushadi. Harorat tunda qanchaga o'zgaradi?


3. Rasmlarga qarab 6-sentabrda kunning turli vaqtlarida havo harorati necha gradus bo'lganini aytib bering. Har bir soat tagiga vaqtni **soat:minut** ko'rinishida yozing.

Tun	Tong	Kun	Oqshom
			
21°C	20°C	32°C	31°C

4. Azim soat 6:00 da uyg'ondi. U 50 minut ertalabki jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullandi. Azim maktabga tayyorlanishga jismoniy mashg'ulotdan 30 minut kam, yo'lga esa tayyorgarlikdan 30 minut ko'p vaqt sarfladi. U soat nechada maktabga keldi? Sonlar nurini tuzing va unga mashg'ulot, tayyorgarlik va maktabga borish uchun sarflangan vaqtlarni belgilang.



5. Amallarni bajaring.



6. Tenglamalarni yeching.

a) $x + 4$ h 48 min = 9 h 03 min – 1 h 58 min
b) 7 h 20 min – y = 2 h 56 min + 1 h 17 min
d) t – 3 h 14 m = 7 h 52 min – 4 h 19 min
e) 5 h 31 min + b = 4 h 42 min + 2 h 56 min


7. Ob-havoni kuzatadigan qurilma haroratni har 40 minutda o'lchaydi. Qurilma qaysi vaqtda 24° C ni ko'rsatgan? Oxirida qaysi vaqt yozilgan?

11:20	22° C
12:00	23° C
	23° C
	24° C
	25° C

8. Krossvordni yeching.

Gorizontal:
A) 35 · 7
D) 13 · 4
E) 900 : 3
F) 98 – 4 · 9
G) 637 : 637

Vertikal:
A) 125 + 137
B) 320 – 228
D) 70 · 8
E) 64 : 2



9. Sentabr oyi birinchi yarmining o'rtasi chorshanbaga to'g'ri keladi. Sentabr oyi ikkinchi yarmining o'rtasi haftaning qaysi kuniga to'g'ri keladi?

10. Masalani yechishda 1 soat uchun 6 katak olib, sonlar nurini chizing.
Soat 8:40 da yomg'ir yog'a boshladi. U 2 soat-u 30 minut davom etdi. Keyin yomg'ir to'xtadi va 3 soat-u 40 minutdan so'ng yana yog'di. Bu qaysi vaqtda sodir bo'ldi?

11. Hisoblang.

13 · 5 + 12 · 6	34 · (2 · 5)	(345 + 17) – 145
13 · 4 + 17 · 2	40 : 8 + 17 · 3	619 – (327 + 119)

9. Takrorlash. To'g'ri to'rtburchak





Yondosh mavzu:
Qishloq xo'jaligi

To'g'ri to'rtburchak
perimetri,
yuza

1. Misollarni yeching. Bu yerda qanday miqdorlar haqida aytilyapti?
a) Misollarning qiymatlarini o'sish tartibida qo'yib chiqing.

E $16 \cdot 7$	**M** $30 \cdot 10$	**R** $34 \cdot 5$
E $51 \cdot 6$	**P** $12 \cdot 8$	**T** $72 \cdot 8$
I $6 \cdot 34$		**R** $82 \cdot 9$

b) Javoblarni kamayish tartibida qo'yib chiqing.

U $713 - 236$	**Y** $286 + 491$
A $814 - 792$	**Z** $827 - 799$

2. Shaklning perimetri deb nimaga aytilishini eslang. Shakllarga mos tengliklarni toping.



$P = a$ $P = a \cdot 3$ $P = a \cdot 6$ $P = a \cdot 5$ $P = a \cdot 4$

Qaysi tenglik uchun shakl topilmadi? Siz unga mos shaklni chiza olasizmi?

3. Birinchi kvadratning perimetri 3 dm 2 cm, ikkinchi kvadratning perimetri undan 80 mm katta. Ikkinchi kvadratning tomonlari birinchi kvadratning tomonlariga qaraganda qancha uzun?

4. Fermerning uchta yer maydoni bor. Har bir maydon shaklini ayting. Har bir maydon atrofidagi devorning uzunligi qancha?



5. Shaklning yuzi deb nimaga aytiladi? To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini o‘lchash uchun bolalar turli xil o‘lchamlarni oldilar. Qaysi o‘lcham eng qulay?



6. Bir o‘lchov birligidan boshqasiga o‘tkazing.

5 dm = ☐ cm	5 dm 3 cm = ☐ cm	2 dm^2 = ☐ cm^2
12 m = ☐ dm	7 m 2 dm = ☐ dm	3 m^2 = ☐ dm^2
2 km = ☐ m	8 m 3 cm = ☐ cm	5 m^2 3 dm^2 = ☐ dm^2

7. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi maydonning bo‘yi 80 m, eni undan 4 marta kichik. Maydonning perimetri va yuzi nechaga teng?

8. Kattaliklar bilan amallarni bajaring.


523 m^2 + 248 m^2 – 316 m^2 120 dm^2 + 352 dm^2 – 227 dm^2

78 cm^2 · 3 – 211 cm^2 72 mm^2 : 8 + 616 mm^2


9. Taqqoslang.

$18 + 7 \square 18 - 7$	$64 - 8 \square 64 : 8$	$x : x \square 1 : 1$
$45 : 5 \square 45 : 9$	$9 \cdot 3 \square 2 \cdot 10$	$d \cdot d \square 0 : d$

10. Fermer kvadrat shaklidagi yer maydonini kvadrat maydonchalarga bo‘ldi. Eng kichik maydonchaning eni 10 m. Butun yer maydonining yuzasini toping.



11. Daftaringizga kvadrat chizing. Uning ichida siniq chiziqni shunday o‘tkazingki, natijada o‘ngdagi shakllar hosil bo‘lsin:



12. Hisoblang.

$48\ \text{m} : (2 \cdot 3) - 26\ \text{dm}$	$(5\ \text{m} - 100\ \text{cm}) \cdot 3 : 2$
$(14\ \text{m}^2 - 5\ \text{m}^2) : 3$	$(22\ \text{dm}^2 - 19\ \text{dm}^2) \cdot 3 + 19\ \text{dm}^2$

13. Olmazor to‘rtburchak shaklda. Bog‘ maydonining bo‘yi 27 m, eni undan 3 marta kichik. Fermer bog‘ni qushlardan himoyalash uchun ustini to‘r bilan o‘rashi kerak. Unga eni 4 m bo‘lgan 70 m lik to‘r o‘rami yetadimi?

Yondosh mavzu:
Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Katta sonlar, xonalar





1. Sonlarni uchta guruhga bo‘ling:
76, 894, 308, 38, 3, 8, 17, 72, 172, 225, 95, 5.

Bir xonali	Ikki xonali	Uch xonali

2. Uch xonali sonlarni ko‘rsating. Har bir sonda nechta yuzlik, o‘nlik va birlik bor? Nechta yuzlik va birlik bor? Nechta o‘nlik va birlik bor?

28 293 11 4 2 000 107 325

3. Matnni o‘qing.

Qoraqalpog‘istonda aholi yashaydigan joylar 6 000 yildan avvalroq paydo bo‘lgan. Hozir u yer 166 600 kvadrat kilometr maydonga ega yirik hudud hisoblanadi. Poytaxti – 325 100 nafar odam yashaydigan Nukus shahri. U aholisi soni ko‘pligi bo‘yicha mamlakatimizdagi beshinchi shahardir.

O‘qish qiyin bo‘lgan sonlarni ko‘rsating. Bu sonlarda nechta raqam ishtirok etgan?



Yozuvda sonning har bir raqami ma’lum bir o‘rinni egallaydi. Bu o‘rin xona deb ataladi. Qulaylik uchun ko‘p xonali sonlar sinflarga – o‘ngdan boshlab uchta raqamdan iborat guruhlarga bo‘linadi. Har bir sinfning o‘z nomi bor: eng kichigi – birlar sinfi, keyingisi – minglar sinfi.

Minglar sinfi			Birlar sinfi		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar
2	5	8	1	6	9
Ikki yuz ellik sakkiz ming			Bir yuz oltmish to‘qqiz		

4. Yozilgan sonlarni o‘qing. Ularda nechta raqam bor?

968 (minglar)	372 (birlar)	103 (minglar)	210 (birlar)	542 (minglar)	207 (birlar)
177 (minglar)	264 (birlar)	95 (minglar)	161 (birlar)	3 (minglar)	581 (birlar)

5. Quyidagi sonlarni yozing, ularda:

a) 65 ta minglik 567 ta birlik;
b) 380 ta minglik 607 ta birlik;
d) 1 ta minglik 355 ta birlik;
e) 70 ta minglik 400 ta birlik bo‘lsin.

6. Tenglamalarni yeching.

a) $20 \cdot x = 300 - 180$
b) $a : 7 = 29 + 41$
d) $210 : y = 145 - 75$
e) $900 - t = 720 : 8$

7. Hisoblang.

9 m – 1 m 6 cm – (5 m 39 cm + 24 dm 5 cm)

8. Nukusda I.V. Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyi bor. U soat 9:00 da ochiladi va 17:00 da yopiladi. Muzey kuniga necha soat ishlaydi?



9. Muzeyda 47 ta qoraqalpoq rassomlari va ulardan ikki marta ko‘p o‘zbek rassomlarining asarlari to‘plangan. Agar muzeyda jami 235 ta asar bo‘lsa, rus rassomlarining nechta asari joy olgan?

10. Rasmlar ko‘rgazmasiga bir nechta rassomlar 50 ta surat taqdim qilishdi. Har bir rassom hech bo‘lmaganda bitta surat berdi va ular bergan suratlar soni bir xil emas. Bu guruhda ko‘pi bilan nechta rassom bo‘lishi mumkin?

11. Quyidagicha sonlarni yozing, ularda:

a) 190 ta minglik 337 ta birlik;
b) 200 ta minglik 500 ta birlik;
d) 47 ta minglik 532 ta birlik;
e) 129 ta minglik 936 birlik;
f) 70 ta minglik 710 birlik;
g) 9 ta minglik 104 ta birlik bo‘lsin.

12. Misollarni yeching va zamonaviy qoraqalpoq adabiy tili asoschisi kimligini toping.

A	$700 - 176 + 283$	**E**	$543 + 207 - 615$
B	$16 \cdot 4 + 23 \cdot 8$	**R**	$500 : 5 - 720 : 9$
D	$(673 - 594) \cdot 3$	**Q**	$26 \cdot 5 + 14 \cdot 7$

248	135	20	237	807	228

11. Pozitsion sanoq sistemasi





Yondosh mavzu:
Xorazm viloyati

Pozitsion sanoq sistemasi

1. Biz sonlarni yozishda nechta raqamdan foydalanamiz? Amallarni bajaring. Bu yerda qaysi mamlakat nomi yashirilgan?

S	O	H	N	I	D	T
235 + 123	683 − 541	708 + 213	562 − 319	259 + 154	302 − 187	700 − 228

921	413	243	115	413	358	472	142	243



Biz arab raqamlari deb ataydigan raqamlar Hindistonda kashf qilingan. Boshqa xalqlarda bo'lmagan 0 raqami hindlarning muhim kashfiyoti bo'lgan. Nol borligi tufayli eng uzun sonlarni ham o'nta raqam yordamida yozish imkoniyati paydo bo'ldi.



2. Biz pozitsion sanoq sistemasidan foydalanamiz. Bu raqamning qiymati uning joylashgan o'rniga bog'liqligini anglatadi. 2, 5, 8 raqamlaridan tuzish mumkin bo'lgan uch xonali sonlarni ayting. Chiqqan har bir sonda nechta yuzlik, o'nlik va birlik bor? Har bir sonda nechta to'liq o'nlik bor? Nechta to'liq yuzlik bor?

3. Xorazmiygacha Yevropada rim yozuvidan foydalanilgan. Sonlarni arab raqamlarida yozing va amallarni bajaring.

I = 1, V = 5, X = 10, L = 50, C = 100.

XXV + LIII	LXXII – XXXIII	C : V
XII + III	X – VIII	XV · V

4. Sonlarni raqamlar bilan yozing, ularda:
a) 2 ta minglik 487 ta birlik;
b) 5 ta minglik 304 ta birlik;
d) 12 ta minglik 100 ta birlik;
e) 280 ta minglik 600 ta birlik bo'lsin.
Har bir sonda nechta raqam bor?

5. Xivadagi yodgorliklarni ko'rish uchun 5 soat-u 45 minut, tushlikka 35 minut, bozorga borish uchun yodgorliklarni ko'rishdan 2 soat-u 50 minut kam vaqt rejalashtirilgan. Agar sayohatchilar mehmonxonadan 9:00 da chiqqan bo'lsa, ular soat nechada qaytib kelishadi?

6. Taqqoslang.

$1 \cdot 18 \square 18 \cdot 0$	$32 : 1 \square 0 : 32$	$a : a \square b : b$
$4 \cdot 1 \square 4 + 0$	$11 - 0 \square 11 \cdot 0$	$c \cdot 0 \square 0 \cdot c$

7. Quyidagi misollarni ifoda ko'rinishida yozing va ularning qiymatini hisoblang.
a) Eng katta ikki xonali son bilan eng kichik uch xonali sonning yig'indisidan 3 marta orttirilgan eng katta bir xonali sonni ayiring.
b) Eng kichik uch xonali son bilan eng kichik natural sonning ayirmasini eng katta ikki xonali songa bo'ling.

8. a) 3 ta magnitli esdalik sovg'a uchun 60 000 so'm to'landi. 5 ta magnit uchun qancha to'lash kerak?

b) 8 dona sopol haykalcha uchun 720 000 so'm to'langan. Bu haykalchalarning 4 tasi uchun qancha to'lash kerak bo'ladi?

9. Navbatdagi rasm qanday bo'ladi?



10. 4 quti shirinlik uchun 360 000 so'm to'langan. 9 quti shirinlik uchun qancha to'lash kerak?

11. Hisoblang.

Muhammad al-Xorazmiy izlanishlari natijasida fanga qanday zamonaviy so'zlar kirib kelganini bilib oling.

a) Javoblarga mos harflarni o'sish tartibida qo'yib chiqing.

A	60 : 2 – 17	M	32 + 7 · 2
G	48 : 6 + 8	O	54 : 9 + 18
I	59 – 6 · 5	R	81 : 9 + 19
L	180 : 9 – 6	T	64 – 8 · 3

b) Doiraviy misollarni yeching. Javoblarni A harfi qiymatidan boshlab qo'yib chiqing va so'zni toping.

G	719 – 87	L	211 + 508	B	741 – 249
E	632 + 109	A	367 – 156	R	492 – 125

Yondosh mavzu:
Buxoro viloyati

Sinflar va xonalar





1. 54 623, 73 725, 412 343, 198 735 sonlarini o‘qing. Ularning xona va sinflarini ayting.

2. Sonlarni raqamlar yordamida yozing.

a) Buxoroda bir yuz qirqdan ortiq tarixiy obida mavjud.

b) Minorai Kalon masjidining katta hovlisi ikki yuz sakkizta g‘isht ustunlar bilan o‘ralgan.

d) Devonbegi hovuziga to‘rt ming kub metrdan ko‘proq suv sig‘adi.

Bu sonlarni yozishda qaysi o‘qilmaydigan raqamdan foydalanish mumkin?

Sonlarni o‘qishda har bir sinf nomi alohida aytiladi. So‘nggi sinf – birliklar sinfi nomini aytish shart emas.
Sinfning ichida raqamning o‘z o‘rni – xonasi bor.
Agar xonada 0 turgan bo‘lsa, bu xona o‘qilmaydi.

Millionlar			Minglar			Birlar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar
	1	2	3	4	5	6	7	8
7	4	0	2	0	3	0	5	8



12 345 678 soni 12 million 345 ming 678 kabi o‘qiladi.

740 203 058 soni 740 million 203 ming 58 kabi o‘qiladi.

Agar sinfda uchta xonaning hammasida 0 raqami turgan bo‘lsa, bu sinf nomi aytilmaydi.



Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar
	5	7	0	0	0	2	6	1

57 000 261 soni 57 million 261 kabi o‘qiladi.

3. Jadvalda yozilgan sonlarni o‘qing.

Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar
	1	1	1	0	3	2	7	0
				2	4	5	6	1
	7	0	6	8	0	0	8	5
					4	0	0	0
	1	0	0	0	0	0	0	0

4. Sonlarni jadvalga yozing va ularni o‘qing:
61 987 652, 921 407 120, 32 780, 100 002, 28 000 036

Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar

5. Amallarni bajaring. Hosil bo‘lgan sonlarni o‘qing.

$20 \cdot 4 + 40 \cdot 4$	$(5 + 278) \cdot 1\,000$	$700 \cdot (153 + 47)$
$7 \cdot 90 + 30 \cdot 7$	$(46 + 345) \cdot 100$	$30 \cdot (284 + 316)$
$20 \cdot 30 + 50 \cdot 3$	$(5 + 683) \cdot 10\,000$	$500 \cdot (179 - 89)$

6. Buxoro zardo‘zlik san’ati bilan shuhrat qozongan. 8 ta zar to‘n ustida 40 nafar chevar mehnat qiladi. 7 ta to‘nni tikish uchun nechta chevar kerak bo‘ladi?



7. Tenglamalarni yeching va tekshiring.

$x - 657 = 209 + 98$	$860 - y = 119 + 237$
$750 + z = 430 + 524$	$t + 219 = 867 - 138$

8. Ikkita bir xil zardo‘zlik naqshini toping.



9. Usta 3 kvadrat santimetr baxmalga 150 ta chok tikadi. 20 cm^2 naqsh tikish uchun nechta chok tikilishi kerak?

10. Hisoblang va chevarlar gul solib tikadigan naqsh qanday atalishini bilib oling.

G	259 + 317	**I**	961 – 408	**U**	345 – 117
D	950 – 398	**L**	322 + 167	**A**	529 + 219
Z	225 + 168	**O‘**	540 – 117	**N**	300 – 225

576	228	489	552	423	393	553

13. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi





Yondosh mavzu:
Navoiy viloyati

Sinflar va xonalar,
10, 100 ga ko‘paytirish

1. Sonlarni jadvalga yozing va ularni o‘qing.

Navoiy viloyatida aholi soni 1 004 500 nafar. Ularning 498 100 nafari shaharlarda, 458 400 nafari qishloqlar va shaharchalarda yashaydi.

Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar

2. Sonlarni sinflarga ajrating va ularni o‘qing.

534 504 569	23 423 767	67 082 039
8 300 022	50 000 002	208 003 190

3. Bitta yuzlikda nechta o‘nlik va nechta birlik bor?
Bitta minglikda nechta birlik, o‘nlik, yuzlik bor?




1 birlik



1 o‘nlik



1 yuzlik



1 minglik

5 ta minglikda necha o‘nlik bor? 3 ta minglikda-chi?
10 ta minglikda-chi?
4 ta minglik va 6 ta yuzlikda necha o‘nlik bor?



1 o‘nlik = 10 birlik
1 yuzlik = 10 o‘nlik = 100 birlik
1 minglik = 10 yuzlik = 100 o‘nlik = 1 000 birlik
1 million = 1 000 minglik = 1 000 000 birlik

4. Daftaringizga ko‘chirib yozing va bo‘sh joylarni to‘ldiring.

6 yuzlik = ... birlik 34 yuzlik = ... birlik
7 minglik = ... birlik 27 minglik = ... birlik

5. Ko‘paytirishni bajaring. Hosil bo‘lgan sonlarni o‘qing.

90 · 100	17 · 10 000	25 · 3 000
200 · 100	640 · 100	2 800 · 70
300 · 900	800 · 7 000	12 300 · 200

6. Toshkentdan Navoiyga “Sharq” poyezdida borish mumkin. Chipta narxlari ekonom-klassga 98 000 so‘m, birinchi toifa vagon uchun 160 000 so‘m. Sayohatga borish uchun 2 nafar katta va 3 nafar boladan iborat oila har ikki holat bo‘yicha qancha pul to‘lashi kerak?

Birinchi toifa vagon narxi ekonom-klass vagoniga qaraganda qancha qimmatroq bo‘ladi?

7. Savollarga javob berish uchun ifodalar tuzing.

a) Muruntov konidan 2 yilda 100 t oltin qazib olindi. Agar qazib olish 75 yil davom etsa, bu kondagi oltin zaxirasi qancha?

b) 7 ta yuk mashinasida 28 tonna ruda olib chiqildi. 15 ta mashina bilan qancha ruda tashish mumkin?

13. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi

8. Navoiy viloyatida qadimgi qoyatosh suratlari bo‘lgan mashhur g‘or bor.
Misollarni amallarning bajarilish tartibiga ko‘ra yeching va bu g‘or qanday atalishini bilib oling.



$(27 \cdot 3 + 319) : 2 + (418 - (217 - 600 : 20)) + 67 \cdot 7$

A 400	**S** 469	**R** 30
O 431	**Y** 900	**S** 81
I 231	**M** 187	**Sh** 200

9. 4, 6, 7 raqamlaridan uch xonali sonlar tuzing. Nechta son hosil bo‘ldi? Qanday sonlar ko‘proq chiqdi: juft sonlarmi yoki toq sonlarmi?

10. Visola poyezdning boshidan 17-vagonga, Malika esa oxiridan 9-vagonga chiqdi. Shunda qizlar qo‘shni vagonlarda ketayotganlari ma’lum bo‘ldi. Poyezdda nechta vagon bo‘lishi mumkin?

11. a) Sonlarni sinflarga ajrating.

10 487 488 324 900 044 90 000 384 9 738 000

b) Ifodalarning qiymatini hisoblang. Birliklar sinfining tagiga bitta chiziq, minglar sinfining tagiga ikkita chiziq, millionlar sinfining tagiga uchta chiziq chizing.

$3\,800 \cdot 100$ $76 \cdot 10\,000$ $8\,880 \cdot 1\,000$

12. Navoiyga “Afrosiyob” poyezdida tez yetib olish mumkin. Arzon chipta 146 ming so‘m turadi, qimmati esa undan 136 ming so‘m ortiq. Ikkita qimmat chipta uchun qancha to‘lash kerak bo‘ladi?


Yondosh mavzu:
Samarqand viloyati

Sonlarni taqqoslash,
sinflar va xonalar







1. Diagrammadagi ma’lumotlarni o‘qing.



Qayerda eng ko‘p aholi yashaydi?

2. Sonlarni yozing va ularni taqqoslang. Qaysi to‘plamda kubiklar ko‘p?





14. Ko‘p xonali sonlarni taqqoslash

3. Sonlarni o‘qing. Jadvaldagi eng katta son qaysi? Nima uchun?

Millionlar			Minglar			Birlar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar
			9	9	9	9	9	8
			9	9	9	9	9	9
		1	0	0	0	0	0	0



Agar sonlarning raqamlar miqdori turlicha bo‘lsa, raqamlari ko‘p son katta bo‘ladi.

28 937 < 289 370 **98 < 123** **9 999 < 10 000**

Agar ko‘p xonali sonlarning raqamlari miqdori teng bo‘lsa, ularni yuqori xonadan boshlab xonalar bo‘yicha taqqoslaymiz. Bunda qaysi sonning mos xona birligi katta bo‘lsa, o‘sha son katta bo‘ladi.

3 450 < 3 540 **65 100 239 < 65 100 241**

4. Taqqoslang.

340 ☐ 600 280 ☐ 267 67 ☐ 607

1 000 ☐ 999 1 000 000 ☐ 999 999 2 830 ☐ 2 083

75 530 ☐ 75 496 834 921 ☐ 98 567 70 057 ☐ 70 570

5. 1925-yilda Samarqand O‘zbekistonning poytaxti bo‘lgan. Bu son raqamlarining o‘rnini almashtirib, eng katta va eng kichik to‘rt xonali sonlar tuzing.

6. Sonlardagi ba’zi raqamlar yulduzcha bilan almashtirildi. Ularni taqqoslay olasizmi?

627* ☐ 6271 283** ☐ 27*** 9** ☐ 1****

7. Sayyohlar avtobusi Toshkent – Samarqand – Shahrisabz – Qarshi – Toshkent yo‘nalishi bo‘ylab yurdi. Chizma bo‘yicha avtobus necha kilometr yurganini aniqlang.



8. Yahyo 5, 6, 7, 8, 9 raqamlari yordamida turli besh xonali sonlarni yozdi, bu sonlarda raqamlar takrorlanmaydi. Keyin bu sonlarni o‘sish tartibida yozdi. Yozuvda 79 865 sonidan keyin qaysi son keladi?

9. Sayyoh Toshkentdan Samarqandgacha 312 km, Samarqanddan Buxorogacha esa undan 57 km kamroq yo‘l bosib o‘tgan. Sayyoh bosib o‘tgan umumiy masofa qancha?

10. a) Sonlarni taqqoslang.

475 470 ☐ 65 610
1 000 000 ☐ 99 999
390 757 ☐ 530 772
100 280 ☐ 106 798
1 000 000 ☐ 999 999
10 834 921 ☐ 12 377 567

b) Sonlarni o‘sish tartibida yozing.

99 998, 315, 3 015, 23 009, 210, 3 150, 100 000

15. Xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi






Yondosh mavzu:
Qashqadaryo viloyati

Sonlarning yoyilmasi,
xonalar,
xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi

1. Qarshi shahrining Qashqadaryo daryosi ustida tarixiy “Amir Temur ko‘prigi” bor. Uning uzunligi 122 metr. Unda nechta to‘liq yuzlik metr bor va qancha to‘liq o‘nlik metr bor?



2. Qashqadaryo viloyatining maydoni 28 570 km^2.
Bu sonni jadvalga yozing. Unda necha yuzlik, o‘nlik va minglik bor?

O‘n minglar	Bir minglar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar
10 000	1 000	100	10	1

Xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi – ko‘p xonali sonning xona birliklari yig‘indisi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

34 792 = 30 000 + 4 000 + 700 + 90 + 2

Ko‘rsatma:
Sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozish uchun:



1) uning noldan boshqa har bir raqami uchun qo‘shiluvchi tuzing: bu raqamga, sonda undan keyin nechta raqam kelayotgan bo‘lsa, shuncha nol yozing;


2) yig‘indini shu qo‘shiluvchilar bilan yozing.

28 570 = 20 000 + 8 000 + 500 + 70.

3. Xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing.

34 567 290	560 400 803	150 004
290 007	5 000 008	230 000

4. Yig‘indini hisoblang. Sonda qanday xona birliklari yo‘q?



5. Tenglamalarni yeching. Topilgan ildizlarni o‘qing.

$t - 50 - 600 = 4\ 000$

$x - 70 - 300 - 40\ 000 = 500\ 000$

6. Yulduzlarni kuzatar ekanlar, olimlar 578 ta kichik asteroid va ulardan 134 ta kam katta asteroidni sanashdi. Yana asteroidlardan 376 ta kam kometalarni ko‘rishdi. Olimlar jami nechta kosmik jismni sanashgan?

7. Kitob shahridan uncha uzoq bo‘lmagan joyda Yer uchun xavfli asteroidlarni qidiradigan rasadxona joylashgan. Amallarni tartibi bo‘yicha bajaring va rasadxona qurilgan hudud nomini aniqlang.

$246 + ((608 - 518) \cdot 7 - 283) - (5 \cdot (124 - 38) - 62)$

A 630	**D** 86	**K** 225	**N** 368
A 593	**Y** 347	**M** 90	**A** 430

8. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.
a) 245 soniga 456 va 289 sonlari ayirmasini qo‘shing.
b) 876 sonidan 228 va 192 sonlarining yig‘indisini ayiring.

9. Blits topshiriq. Hisoblang. Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahri qadimda qanday nomlangan?

A	278 + 194 + 222	**N**	116 + 167 + 333
I	800 – 192 – 108	**S**	453 – (109 + 153)
U	(375 + 179) – 175	**F**	(642 + 118) – 18

616	694	191	694	742

10. Shakl uchta rangli qismdan tashkil topgan bo‘lib, har bir qism to‘rtta kubikdan iborat. Sariq qism qanday shaklda bo‘lishi mumkin?



10. Matnda uchraydigan sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing.

Qashqadaryoda qishloq xo‘jaligi keng rivojlangan. 6 800 km² ga yaqin maydoni ekin ekishga mo‘ljallangan bo‘lib, shundan 2 357 km² maydonga bug‘doy, 4 240 km² ga paxta ekilgan. Qashqadaryo chorvachilikda ham oldingi o‘rinlarda turadi. Yil boshida bu hududda 1 267 700 bosh qo‘y va echki bor edi. Ulardan tirik vaznda 219 000 000 kg go‘sht, 5 000 000 kg jun olindi.

11. Astronomlar birinchi kun 79 ta yangi asteroidni, ikkinchi kun undan 14 ta kam asteroidni aniqlashdi. Shu ikki kun ichida jami nechta asteroid aniqlandi?

Yondosh mavzu:
Surxondaryo viloyati

Qo‘shish,
sinflar va xonalar






1. Birinchi kun Termiz – Qarshi yo‘lining 3 km 200 m qismi, ikkinchi kun 5 km 400 m qismi ta’mirlandi. Yo‘lning jami qancha qismi ta’mirlandi?

2. Amallarni bajaring.

4 km 430 m	3 km 570 m	4 km 600 m	7 km 862 m
+ 2 km 360 m	+ 6 km 349 m	+ 3 km 700 m	+ 8 km 399 m

3. Sonlarning xonalarini va ularning bog‘lanishini eslang.






Ikkita ko‘p xonali sonni qo‘shish uchun:

1) sonlarni ustun shaklida yozing, har bir xonaning raqamlari bir-birining ostiga joylashsin;

2) o‘ng tomondan boshlab har bir xonadagi sonlarni qo‘shing. Agar natija 10 dan ortiq bo‘lsa, uning birliklarini shu xonaga yozing, o‘nliklar sonini katta xonaga o‘tkazing.



4. Amallarni bajaring.

23 715 + 13 084	28 400 + 13 500	382 659 + 193 548	33 000 490 + 5 189 570


5. Termizda noyob arxeologik muzey bor. U yerda 8 529 ta qadimiy tanga, 4 238 ta ro‘zg‘or ashyolari, 245 ta haykal va tangalardan 2 897 ta ko‘p taqinchoqlar saqlanadi. Muzeyda hammasi bo‘lib qancha eksponat bor?

6. Jadvalga qarab masalani yeching.
Arxeologlar qadimgi odamlarning mehnat qurollarini topdilar.

			
Nayza	Chopqi	Kesish asbobi	Kurakcha
876	Nayzadan 584 ta ko‘p	Nayzadan 598 ta kam	Kesish asbobidan 235 ta ko‘p

Hammasi bo‘lib nechta mehnat quroli topilgan?

7. Kataklarga qanday sonlar yozilishi kerak?



8. Poyezd Toshkentdan soat nechada yo‘lga chiqib, Termizga soat nechada yetib kelishini aniqlang. Agar poyezd Termizdan kechqurun yo‘lga chiqsa va Toshkentga ertalab yetib kelsa, u qancha vaqt yo‘lda yurgan bo‘ladi?

Toshkent	Termiz
	

9. Daftaringizga sehrli kvadrat chizing. Har bir qator va ustundagi sonlar yig‘indisi doira ichida yozilgan songa teng bo‘lsin.

316	456	
115		427

900

10. Poyezd Termizga 18:24 da yetib keldi. Mahmud elektron tablodagi raqamlar yig‘indisi 15 ga teng ekaniga ahamiyat berdi. Tablodagi raqamlarning eng katta yig‘indisi nechaga teng bo‘lishi mumkin?

11. Yig‘indini ustun ko‘rinishida hisoblang.

a) 73 263 + 80 212
b) 560 890 + 125 076
d) 900 997 + 54 028
e) 112 229 037 + 220 987 217
f) 999 999 + 3
g) 99 999 999 + 999 999

12. Muzey kutubxonasida qadimgi kitoblar va tarixiy hujjatlar saqlanadi. Kitoblar soni 6 543 ta bo‘lib, bu hujjatlarga qaraganda 4 298 taga kam. Muzeyda jami nechta kitob va hujjatlar bor?

17. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish





Yondosh mavzu:
Jizzax viloyati

Xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi,
sinflar va xonalar,
harfiy ifodalar

1. Archa o‘rmonlarini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan qo‘riqxona qanday nomlanadi? Amallarning bajarilish tartibiga ko‘ra so‘zni toping.

$2835 + (1657 + 7860) + (845 - 39 \cdot 7)$

M	572	**I**	12 352	**O**	273
Z	9 517	**U**	2 570	**N**	12 924

2. Zomin bog‘ining daraxtsiz yerlari 7 327 gektarni, o‘rmonzorlari esa 9 456 gektarni tashkil etadi. Zomin bog‘i necha gektarni egallaydi?



3. 10 000 m^2 ga teng maydon bir gektar deb ataladi.

$1\ ha = 10\ 000\ m^2$

4 gektarda necha kvadrat metr bor? 7 gektarda-chi? 20 gektarda-chi?

4. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida yozing.

356 894 280 300 507 130 904 600 000 003

5. Masalalarga mos ifodalar tuzing.

a) Zominga sayyohlarni n ta avtobusda va m ta yo‘nalishli taksida olib kelishdi. Har bir avtobusda 35 nafardan, taksida esa 11 nafardan yo‘lovchi keldi. Hammasi bo‘lib necha sayyoh kelgan?

b) Sanatoriyda a ta ikki o‘rinli va b ta to‘rt o‘rinli xonalar bor. Sanatoriyga jami necha kishi joylashishi mumkin?

d) Sanatoriy oshxonasida x ta 6 o‘rinli va y ta 4 o‘rinli stol bor. Oshxonada bir vaqtning o‘zida necha kishi ovqatlanishi mumkin?


Bu ifodalarda qanday umumiylik bor va ular nimasi bilan farqlanadi?

6. Bo‘sh joylarni to‘ldiring.

$4\ m^2\ 13\ dm^2 = \ldots\ dm^2$
$6\ dm^2\ 87\ cm^2 = \ldots\ cm^2$
$5\ cm^2\ 28\ mm^2 = \ldots\ mm^2$

$289\ dm^2 = \ldots\ m^2 \ldots\ dm^2$
$967\ cm^2 = \ldots\ dm^2 \ldots\ cm^2$
$345\ mm^2 = \ldots\ cm^2 \ldots\ mm^2$

7. Bu harflarning yuzalarini taqqoslang. Qaysi harfga ko‘proq qog‘oz ketadi?



8. Avtomobil raqami uch xonali sondan iborat. Azim faqat raqamlarining yig‘indisi 7 ga teng bo‘lgan sonni omadli raqam deb hisoblaydi. Ular qaysi raqamlar bo‘lishi mumkin?

9. Yozing.

a) Sonlarni raqamlar bilan yozing.

8 mln 672 ming 520 — 72 mln 53 ming 700

203 mln 4 ming 9 — 500 mln 9

b) Millionlari 734 ta, minglari millionlaridan 108 ta ko‘p, birliklari esa minglaridan 223 ta kam bo‘lgan sonni raqamlar bilan yozing.

d) O‘nliklar xonasida 6 raqami, yuzliklar xonasida o‘nliklar xonasidagi raqamdan 3 marta kichik, birliklar xonasida esa sonning dastlabki ikkita raqami yig‘indisiga teng raqam bo‘lgan uch xonali sonni raqamlar bilan yozing.

10. Ushbu sonlarni raqamlar bilan yozing va ularni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang.

a) Yigirma uch million to‘rt yuz olti ming ellik yetti.

b) Besh yuz uch million sakson bir ming bir yuz o‘ttiz.

d) Olti million uch ming yetti.

e) Bir yuz yigirma million.

11. Misolni amallarning bajarilish tartibiga ko‘ra yeching. Bu tog‘da yana bir qo‘riqxona bo‘lib, u Qizil kitobga kiritilgan kamyob tur – Seversov qo‘yini saqlash maqsadida tashkil etilgan. Bu qaysi qo‘riqxona?

$7\,352 + (62 \cdot 7 + 92 \cdot 9) + (981 - 297)$

O 684	**U** 828	**T** 8 614
A 9 298	**N** 434	**P** 9 128
U 3 145	**R** 1 262	**G** 7 409



Yondosh mavzu:
Sirdaryo viloyati

Sonlarni ayirish,
sinflar va xonalar





1. Amallarni bajaring. Sonlarni amallarning bajarilish tartibi bo‘yicha joylashtiring. Elektr energiyasi qaysi qimmatbaho tosh nomi bilan atalishini bilib oling.

$78 + 9 \cdot (921 - 827) + (681 - 645) : 9 - 147$

R 4	**H** 846	**O** 781	**B** 928
A 36	**A** 924	**M** 621	**Q** 94

2. Masalalarga ifodalar tuzing va savollarga javob bering.

a) Elektr stansiyasi bir hududdagi 1 716 ta, boshqa hududdagi 3 318 ta uyni elektr energiyasi bilan ta’minlaydi. Elektr stansiyasi jami qancha uyni energiya bilan ta’minlaydi?

b) Sirdaryo elektr stansiyasi qurilishi 1966-yilda boshlangan va 1981-yilda tugallangan. Stansiya necha yilda qurilgan?

3. Kecha elektr stansiyasiga 315 ming litr, bugun esa kechagidan 148 ming litr kam mazut keltirildi. Shu ikki kunda qancha mazut olib kelingan?

4. Amallarni sinflar bo‘yicha bajaring.

a) 36 mln 589 ming 500 – 12 mln 345 ming 230


b) 23 mln 120 ming 218 + 14 mln 87 ming 225

d) 420 mln 25 ming 407 – 238 mln 17 ming 189

18. Ko‘p xonali sonlarni ayirish



Bir ko‘p xonali sondan ikkinchisini ayirish uchun:
1) sonlarni ustun shaklida, har bir xona raqamlarini kamayuvchi son raqamlari tagiga tushirib yozing;
2) har bir xonadagi sonlarni o‘ngdan boshlab ayiring. Agar xonadagi kamayuvchi ayriluvchidan kichik bo‘lsa, undan oldingi katta xonadan qarz oling. Qarzni nuqta bilan belgilab qo‘ying;
3) joriy ketma-ketlikdan olingan qarzni o‘nlik sifatida belgilang, uni kamayuvchiga qo‘shing. Ayirishni bajaring.



5. Ifodalarning qiymatini toping.

276 890	980 232	600 200	7 000 000
− 114 349	− 145 118	− 256 982	− 993 378

6. Tenglamalarni tekshirish bilan yeching.

$x + 346\,900 = 820\,520$ $\qquad$ $10\,000\,000 - y = 220\,360$

7. Jadvaldan foydalanib, savollarga javob bering.

a) Guliston aholisi 1991-yildan 2019-yilgacha qanchaga ortgan?
b) Shu davr oralig‘ida necha yil o‘tgan?


Guliston aholisi	
1970-yil	31 000
1991-yil	54 000
2010-yil	77 300
2019-yil	97 600

8. Blits topshiriq. Hisoblang. Quyosh nuridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan elektrostansiyalar qanday ataladi?

A	$8 \cdot 9$	**I**	$5 \cdot 9$	**Q**	$10 \cdot 5$
G	$3 \cdot 3$	**K**	$7 \cdot 7$	**R**	$4 \cdot 8$
D	$7 \cdot 5$	**L**	$8 \cdot 8$	**S**	$1 \cdot 0$
E	$6 \cdot 8$	**M**	$5 \cdot 5$	**T**	$7 \cdot 9$
J	$9 \cdot 10$	**H**	$6 \cdot 7$	**U**	$3 \cdot 4$
Z	$2 \cdot 5$	**O**	$4 \cdot 9$	**Y**	$5 \cdot 8$

9	48	64	45	36	50	12	32	45	64	25	72

9. Quyosh batareyalari nurni tutib oladigan oynalardan tashkil topgan. Batareya oynasining bir qismi singan. Singan oynalarni almashtirish uchun qaysi detallardan foydalanish mumkin?



10. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $982\,189 - (531\,405 - 62\,798) + 230\,080$

b) $1\,000\,000 - (134\,099 + 226\,088 - 23\,400)$

11. Viloyatdagi barcha maktablarning 4-sinfida 23 ming 405 nafar o‘g‘il bola va 22 ming 567 nafar qiz bola, 3-sinflarida esa undan 2 ming 760 nafar kam bola o‘qiydi. 3- va 4-sinflarda jami qancha o‘quvchi o‘qiydi?

19. Ko‘p xonali sonlarni ayirish





Yondosh mavzu:
Namangan viloyati

Qo‘shish va ayirish,
sonlar qatori,
siniq chiziqning uzunligi

1. Tushirib qoldirilgan sonlarni ayting.

a) 38 650 279 sonining yuz minglar xonasida ____ raqami turibdi.
b) 278 999 sonidan keyin _____soni keladi.
d) _____ soni 692 000 sonidan oldin keladi.
e) Eng katta yetti xonali son – _____.
f) Eng kichik to‘qqiz xonali son – _____.
g) 67 000 000 sonida _____ ta yuz minglik bor.
h) 32 895 sonida _____ ta to‘liq o‘nlik bor.

2. Qamchiq dovonidan ish kunlari kuniga 22 300 ta avtomobil, dam olish kunlari undan 1 500 ta kam avtomobil o‘tadi. Dam olish kunlarida dovondan nechta avtomobil o‘tadi?

3. Toshkentdan O‘shgacha bo‘lgan eski yo‘lning umumiy uzunligi 532 km ga teng. Qamchiq tunneli orqali o‘tadigan yangi yo‘l undan 90 km ga qisqaroq. Yangi yo‘lning uzunligi qancha?

4. Namuna bo‘yicha yozing.

Namuna:
13 km 560 m = 13 000 m + 560 m = 13 560 m

a) 5 km 180 m
b) 7 km 729 m
d) 10 km 256 m
e) 12 km 600 m
f) 63 km 18 m
g) 29 km 5 m

5. Xaritada Toshkentdan O‘shgacha bo‘lgan yo‘l siniq chiziq ko‘rinishiga ega. Siniq chiziqning uzunligini o‘lchang.



Xaritada siniq chiziqning 1 santimetri 20 kilometrni anglatadi. Yo‘lning uzunligi qancha?

6. Qulay usulda hisoblang.

a) 12 280 l + 10 160 l + 15 120 l
b) (5 600 kg + 2 900 kg) – 1 600 kg
d) 9 700 m – (3 900 m + 1 700 m)
e) 5 000 cm – 1 230 cm – 1 170 cm

7. Qor ko‘chishi tufayli dovondagi avtoyo‘l yopilgan. Jadvalda yo‘lning ochiq bo‘lgan vaqtlari ko‘rsatilgan. Qaysi haftada yo‘l ko‘proq ochilgan?

1-hafta

Dush.	2 h 30 min
Sesh.	2 h 15 min
Chor.	1 h 45 min
Pay.	3 h 10 min
Jum.	2 h 40 min
Shan.	1 h 55 min
Yaksh.	2 h 20 min

2-hafta

Dush.	1 h 40 min
Sesh.	3 h 05 min
Chor.	1 h 15 min
Pay.	2 h 10 min
Jum.	1 h 50 min
Shan.	2 h 35 min
Yaksh.	2 h 10 min

19. Ko‘p xonali sonlarni ayirish

8. Agar A, B, C va D nuqtalar bir to‘g‘ri chiziqda yotsa, daftaringizga AB = 3 cm 4 mm, BC = 5 cm 3 mm, CD = 4 cm 5 mm kesmalarni chizing. AD kesmaning uzunligi qancha bo‘lishi mumkin?

9. Besh o‘rtoq bugun haftaning qaysi kuni ekanligi to‘g‘risida gaplashdi. Amir: “O‘tgan kuni juma edi”, dedi. Vali: “Indinga seshanba bo‘ladi”, dedi. Suhrob: “Kecha shanba edi”, dedi. Dilshod: “Ertaga dushanba bo‘ladi”, dedi. Rustam: “Bugun payshanba”, dedi. Ulardan qaysi biri adashdi?

10. Metrlarga aylantiring va hisoblang.

a) 6 km 280 m + 12 km 925 m – 14 km 936 m
b) 65 km 602 m – 63 km 67 m + 42 km 109 m
d) 90 km – (29 km 1 m – 12 km 670 m)

11. Yo‘lning ko‘rinishi – bu haydovchi yo‘l bo‘ylab harakatlanish vaqtida oldinda ko‘rish mumkin bo‘lgan masofa. Yorug‘ kunda yo‘lning ko‘rinishi 10 km. Tuman vaqtida yo‘lning ko‘rinishi – 200 m. Tuman vaqtida yo‘lning ko‘rinishi qanchaga pasayadi?





Yondosh mavzu:
Farg‘ona viloyati

Tenglamalar,
amallar tartibi







1. Tenglamalarni yeching va bu shaharlarga qanday hunar turlari xosligini aniqlang.

Marg‘ilon	Rishton
$x - 36\,543 = 29\,700$	$100\,000 - y = 45\,367$

Pichoqchilik 145 367	Ipakchilik 66 243	Zardo‘zlik 65 243
Kulolchilik 54 633	Misgarlik 65 367	

2. Sxemalarni to‘ldiring. Ularni amallar tartibiga ko‘ra hisoblang.

19 100 – 5 500 : 11 + 14 960	63 000 : 7 – 4 935 + 1 400 : 20
	

3. To'quvchi ikki bo'lak shoyi to'qidi. Qaysi bo'lakning yuzi katta?



4. Marg'ilondagi to'qimachilik fabrikasiga 4 kun ichida 258 ta sayyoh keldi. Birinchi kun 49 nafar, ikkinchi kun birinchi kundagiga qaraganda 18 nafar ko'p, lekin uchinchi kundagidan 27 nafar kam sayyoh keldi. Fabrikaga to'rtinchi kuni nechta sayyoh kelgan?

5. Santimetrlarda ifodalang.


To'pda 12 m shoyi bor.
To'pning eni 3 dm 3 cm.
Yog'och to'sinning uzunligi 3 m 64 cm.
Tasmaning uzunligi 1 m 6 dm 2 cm.

6. Shoyi dasturxonning uzunligi 2 m 32 cm, eni undan 2 marta kichik. Dasturxonning chetlariga tikish uchun necha metr popuk sotib olish kerak?

7. Bo'sh joylarni to'ldiring va daftaringizga ko'chiring.

300 cm = ☐ dm = ☐ m
790 cm = ☐ dm = ☐ m ☐ dm
987 cm = ☐ dm ☐ cm
456 cm = ☐ m ☐ dm ☐ cm

8. Qaysi rangdagi kvadratlar katta yuzani egallaydi?



9. Ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.
a) 59 va 42 sonlari yig‘indisini 7 ga ko‘paytirish.
b) 102 va 58 sonlari ayirmasini 4 ga bo‘lish.
d) 67 va 8 sonlari ko‘paytmasidan 245 ni ayirish.
e) 708 sonidan 63 va 7 sonlari bo‘linmasini ayirish.

10. Naqsh kvadratlar va beshburchaklardan iborat. Hammasi bo‘lib 37 ta uchi bor. Naqshda nechta kvadrat bor?


11. O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan ipak matolar ko‘pincha abr matolar deyiladi. Hisoblang va bu nom nimadan kelib chiqqanini aniqlang.


9 904 – 4 539 – (78 009 – 77 928 + 1 578) – 3 679

U 3706 **B** 81 **U** 1 659 **T** 27 **L** 5 365

12. Xonatlasdan yubka tikish uchun 12 metr, nimcha uchun undan 4 marta kam, ko‘ylak uchun esa yubka va nimchaga birgalikda qancha sarflansa, shuncha mato kerak bo‘ladi. Bu kiyimlarni tikish uchun jami qancha xonatlas kerak bo‘ladi?

3. To‘quvchi ikki bo‘lak shoyi to‘qidi. Qaysi bo‘lakning yuzi katta?





4. Marg‘ilondagi to‘qimachilik fabrikasiga 4 kun ichida 258 ta sayyoh keldi. Birinchi kun 49 nafar, ikkinchi kun birinchi kundagiga qaraganda 18 nafar ko‘p, lekin uchinchi kundagidan 27 nafar kam sayyoh keldi. Fabrikaga to‘rtinchi kuni nechta sayyoh kelgan?

5. Santimetrlarda ifodalang.


To‘pda 12 m shoyi bor.
To‘pning eni 3 dm 3 cm.
Yog‘och to‘sinning uzunligi 3 m 64 cm.
Tasmaning uzunligi 1 m 6 dm 2 cm.

6. Shoyi dasturxonning uzunligi 2 m 32 cm, eni undan 2 marta kichik. Dasturxonning chetlariga tikish uchun necha metr popuk sotib olish kerak?

7. Bo‘sh joylarni to‘ldiring va daftaringizga ko‘chiring.

300 cm = ☐ dm = ☐ m
790 cm = ☐ dm = ☐ m ☐ dm
987 cm = ☐ dm ☐ cm
456 cm = ☐ m ☐ dm ☐ cm

8. Qaysi rangdagi kvadratlar katta yuzani egallaydi?



9. Ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

a) 59 va 42 sonlari yig‘indisini 7 ga ko‘paytirish.
b) 102 va 58 sonlari ayirmasini 4 ga bo‘lish.
d) 67 va 8 sonlari ko‘paytmasidan 245 ni ayirish.
e) 708 sonidan 63 va 7 sonlari bo‘linmasini ayirish.

10. Naqsh kvadratlar va beshburchaklardan iborat. Hammasi bo‘lib 37 ta uchi bor. Naqshda nechta kvadrat bor?

11. O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan ipak matolar ko‘pincha abr matolar deyiladi. Hisoblang va bu nom nimadan kelib chiqqanini aniqlang.

9 904 – 4 539 – (78 009 – 77 928 + 1 578) – 3 679

U 3706 **B** 81 **U** 1 659 **T** 27 **L** 5 365

12. Xonatlasdan yubka tikish uchun 12 metr, nimcha uchun undan 4 marta kam, ko‘ylak uchun esa yubka va nimchaga birgalikda qancha sarflansa, shuncha mato kerak bo‘ladi. Bu kiyimlarni tikish uchun jami qancha xonatlas kerak bo‘ladi?

21. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish





Yondosh mavzu:
Andijon viloyati

Sana va vaqt,
murakkab ifodalar,
hisoblashlarning
qulay usullari

1. Ma’lumotlardan foydalanib, savollarga javob bering.



Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug‘ilgan. U 1494-yilda Farg‘ona hokimi bo‘lgan. 1526-yilda esa Hindistonda boburiylar saltanatiga asos solgan. Bu davlat 1848-yilgacha, inglizlar Hindistonni bosib olgunlariga qadar mavjud edi. Podshoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agra shahrida vafot etgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur qancha umr ko‘rgan?	U necha yoshida Farg‘ona hukmdori bo‘lgan?	Hindistonda Boburiylar davlati necha yil hukmronlik qildi?



Qo‘shish va ayirishning hamma xossalari ko‘p xonali sonlar uchun ham qo‘llaniladi.

2. Qulay usulda hisoblang.

a) 67 000 + 924 + 33 000 + 76
b) 38 400 – (18 900 + 18 400)
d) (5 600 000 + 13 759 900) – 11 759 300
e) 30 000 000 – 1 790 000 – 8 210 000
f) 934 900 – (234 900 + 380 000)
g) (27 480 350 + 34 760 847) – 17 480 350


3. Rasmda berilgan ma’lumotlar asosida masala tuzing va uni yeching.



4. Amallarning to‘g‘ri tartibini ko‘rsating. Hisoblang.

80 000 – (5 600 : 7 + 42 376) + 28 000 : 400

5. Shahrixon shahri pichoqchi ustalari bilan dong taratgan. Pichoqning uzunligini santimetrlarda toping.




6. Masalalarga mos ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Bitta lagan 40 000 so‘m, bitta piyola esa 10 000 so‘m turadi. Ko‘rgazmada 5 ta lagan va 30 ta piyola sotib olindi. Xarid uchun jami qancha to‘landi?

b) 9 ta pichoq uchun 720 000 so‘m, 4 ta do‘ppi uchun esa 800 000 so‘m to‘landi. Do‘ppi pichoqdan qancha qimmat?

7. Idishlar xonaning burchagidagi bir xil qutilarga joylangan. Nechta quti ishlatilgan?



8. Qulay usulda hisoblang.

a) 6 344 + 518 + 482 + 656;

b) 87 903 + 17 655 + 12 097 + 22 345;

d) (39 287 + 19 485) – 16 287;

e) (6 890 + 3 719) – 1 709;

f) 90 000 – 76 890 – 23 110;

g) 270 492 – (129 685 + 140 492).

9. Rasmda berilgan ma’lumotlar asosida masala tuzing va uni yeching.



22. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish

Yondosh mavzu:
Toshkent viloyati

Katta sonlar,
tenglamalar,
siniq chiziq uzunligi





1. Sonlarni o‘qing. Ularda nechta to‘liq o‘nlik, yuzlik, minglik, o‘n minglik bor?

5 367, 37 048, 80 003 940, 900 000 001

2. Misollarni yeching va qaysi shahar Toshkent viloyatining ma’muriy markazi ekanini bilib oling.

A	570 309 + 237 806	**R**	360 090 – 183 045
U	109 287 + 287 109	**F**	870 356 – 186 989
O	207 500 + 470 500	**T**	198 178 – 35 289
N	178 004 + 283 007	**Sh**	776 900 – 200 099

461 011	396 396	177 045	808 115	683 367	576 801	678 000	461 011

3. Tenglamalarni yeching. Tekshiring.

$x + 280 = 530 + 380$ $\quad$ $y - 729 = 135 + 271$

$845 - z = 145 + 397$ $\quad$ $361 + t = 967 - 103$

4. Siniq chiziqning bo‘g‘inlarini o‘lchang. Ularning uzunligini millimetrlarda yozing. Siniq chiziqning butun uzunligini toping.



5. Katta Chimyon cho‘qqisi tekislikdan 3 309 m balandlikda joylashgan. Unga chiqish juda qiyin. Shuning uchun balandlikni ko‘rsatadigan belgi pastroqda – 3 275 m balandlikda qo‘yilgan. Belgi cho‘qqidan qancha pastda o‘rnatilgan?



6. Uchta guruh katta Chimyon tog‘i bo‘ylab sayohatga yo‘lga tushdi. Birinchi guruhda 18 nafar sayyoh bor, ikkinchi guruhda birinchidagiga qaraganda 7 nafar ko‘p, uchinchi guruhda esa ikkinchi guruhdagiga qaraganda 5 nafar kam sayyoh bor. Hammasi bo‘lib necha nafar sayyoh sayohatga chiqqan?

7. Sayyohlik yo‘nalishi 3 qismga bo‘lingan. Birinchi qismning uzunligi 3 785 metr, ikkinchi qismning uzunligi undan 1 347 metr kam, uchinchi qismning uzunligi esa birinchi qismning uzunligidan 2 058 metr ortiq. Yo‘nalishning umumiy uzunligi qancha?

8. Taqqoslang.

a) Qaysi cho‘qqi baland?

Katta Chimyon (3 309 m)	☐	Kichik Chimyon (2 097 m)

b) Qaysi daryo uzun?

Chirchiq (155 km)	☐	Piskom (70 km)

d) Qaysi ko‘lda suv ko‘p?

Urung‘och (4 200 000 kub metr)	☐	Shovurko‘l (3 890 000 kub metr)

9. Blits savollar. Ifodalar yozing va ularning qiymatini toping.

a) Dam olish maskaniga Toshkent shahridan 60 nafar dam oluvchi keldi. Ular Toshkent viloyatidan kelganlarga qaraganda 2 marta ko‘p, boshqa viloyatlardan kelganlardan esa 20 nafar kam. Dam oluvchilar soni jami qancha?

b) Binoda 70 ta xona mavjud. Har bir xona 2 kishiga mo‘ljallangan. Agar binoda 68 kishi bo‘lsa, unga yana qancha odamni joylashtirish mumkin?

d) Dam olish maskanining oshxonasida to‘rt kishilik stollar bor. Agar 10 ta stol band bo‘lsa va undan 3 marta ko‘p bo‘sh stol bo‘lsa, oshxonada jami nechta joy bor?

10. Ikkita guruh sayohatga otlandi. Birinchi guruh sayohatchilari ikkinchi guruhdagidan 16 nafarga ko‘p. Ikkala guruh teng bo‘lishi uchun birinchi guruhdan necha kishini ikkinchi guruhga o‘tkazish kerak?

11. Hisoblang va tog‘ sportining qiziqarli, biroq murakkab turi nomini bilib oling.

A	$70 \cdot 8 + 9 \cdot 90$	**M**	$(3 + 7) \cdot 22$
I	$30 \cdot 8 - 50 \cdot 4$	**N**	$(25 - 5) \cdot 140$
Z	$70 \cdot 70 + 20 \cdot 3$	**P**	$5 \cdot 57 + 5 \cdot 3$
L	$60 \cdot 90 - 80 \cdot 5$	**O**	$6 \cdot 14 + 6 \cdot 16$

1 370	5 000	300	40	2 800	40	4 960	220

12. Chimyondagi kanat yo‘lining uzunligi 800 m. Beldersoydagi kanat yo‘li undan 1 400 m uzun. Har bir kanat yo‘liga o‘z uzunligidan 2 marta uzunroq arqon kerak bo‘ladi. Bu yo‘llarni ta’mirlash uchun 9 000 m arqon sotib olindi. Ta’mirdan keyin necha metr arqon ortib qoladi?

Biz nimalarni o‘rgandik?

Biz ko‘p xonali sonlar bilan tanishdik.

1. Sxemada har bir hududda qancha aholi yashashi ko‘rsatilgan.
Har bir viloyatda yashovchi aholi sonini o‘qing.
Eng ko‘p aholi qaysi hududda yashaydi?
Aholisi eng kam hudud qaysi?
O‘zbekiston aholisining umumiy soni qancha?



Biz katta sonlarni taqqoslashni o‘rganib oldik.

2. <, > yoki = belgilari yordamida taqqoslang.


7 635 798 kg □ 7 900 000 kg


13 300 l □ 9 870 l


900 km □ 50 km


45 mm □ 110 mm

Biz katta sonlarni qo‘shish va ayirishni bilib oldik.

3. Bir yilda O‘zbekistonga 290 456 nafar sayyoh keldi. Ularning 98 945 nafari Chimyon tog‘larida dam oldi. Samarqand, Buxoro va Xivaga ulardan 12 783 nafar ko‘p odam bordi. Qolganlari Farg‘ona vodiysiga sayohat qildi. Farg‘onaga qancha sayyoh kelgan?


Biz ko‘p xonali sonlar ishtirok etgan ifodalarning qiymatlarini hisoblashni o‘rgandik.

4. Hisoblang.

$13\,745\,087 + (76\,232\,600 - 52\,128\,091) + 10 \cdot (7\,658\,997 - 2\,996)$


Biz uzunliklar mavzusida o‘z ko‘nikmalarimizni mustahkamladik.

5. Bo‘g‘inlarining uzunligini o‘lchab, siniq chiziqning butun uzunligini toping. Bu siniq chiziqni daftaringizga chizing.



Biz olgan bilimlarimizni amaliy topshiriqlarni bajarishda qo‘llashni o‘rgandik.

6. Devonbegi suv havzasi sakkizburchak shaklda. Uning perimetri bo‘ylab quvur o‘tkazilgan. Rasmdan quvurning uzunligini qanchaligini aniqlang.



23. Sonlarni 10, 100, 1 000 ga ko‘paytirish va bo‘lish






Yondosh mavzu:
Banknotlar, kupyuralar

Ko‘paytirish,
bo‘lish,
pul birliklari


1. Rasmga qarab hisoblang.



$10 \cdot 8$



$100 \cdot 5$



$1\,000 \cdot 2$

2. Qo‘shishni ko‘paytirish bilan almashtiring. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $10 + 10 + 10 + 10 + 10$
b) $100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100$
d) $1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000$
e) $10\,000 + 10\,000 + 10\,000 + 10\,000 + 10\,000 + 10\,000$
f) $100\,000 + 100\,000 + 100\,000 + 100\,000$



Sonni 10, 100, 1 000, ... ga ko‘paytirish uchun ikkinchi ko‘paytuvchida nechta nol bo‘lsa, sonning oxiriga shuncha nolni yozish kerak.

$3 \cdot 10 = 30$ $\quad 7 \cdot 100 = 700$ $\quad 9 \cdot 1\,000 = 9\,000$

Sonni 10, 100, 1000, ... ga bo‘lish uchun bo‘luvchida nechta nol bo‘lsa, bo‘linuvchida shuncha nolni o‘chirish kerak.

$7\text{ø} : 10 = 7$ $\quad 6\text{øø} : 100 = 6$ $\quad 50\,\text{ø}\text{ø}\text{ø} : 1\,000 = 50$

3. Masaladagi savolga javob berish uchun ifoda tuzing.

Boburning otasi maosh oldi. Maosh 27 ta 100 000 so‘mlik banknot va 13 ta 10 000 so‘mlik banknotdan iborat. U qancha maosh olgan?

4. Hisoblang.

38 · 100 =	4 · 10 000 =	1 284 · 100 =
76 · 1 000 =	9 · 1 000 000 =	3 090 · 1 000 =

5. Bo‘lishni bajaring.

60 000 : 10 =	137 000 : 100 =	78 000 000 : 10 000 =
5 000 : 1 000 =	250 000 : 100 =	405 030 : 10 =

6. Ma’lumotlardan foydalanib, xaridning umumiy qiymatini aniqlang.



1 qutisi uchun 10 000 so‘m



1 litri uchun 10 000 so‘m



1 kilogrami uchun 100 000 so‘m

Sotib olindi: 2 quti sut, 5 kg yong‘oq, 8 l o‘simlik yog‘i.
Jami xarid uchun qancha to‘landi?

7. Akmal va Madinaning hamyonida qanchadan pul borligini hisoblang.



100 000 so‘m



10 000 so‘m



1 000 so‘m

Akmal



Madina



Kimning puli ko‘p? Qancha ko‘p?

23. Sonlarni 10, 100, 1 000 ga ko‘paytirish va bo‘lish

8. Tenglamalarni yeching.

$x \cdot 10\,000 = 670\,000$ $y : 100 = 376\,000$

9. Ona tufli xarid qilish uchun quyidagi kupyuralarni to‘ladi. Tufli qancha turadi?



10. Bitta albom necha so‘m? Bir quti bo‘yoq qancha turadi?



= 52 000 so‘m



= 40 000 so‘m

11. Hisoblang.

65 000 000 : 100	1 009 · 100	700 : 100 · 1 000
70 090 000 : 10 000	238 · 100 000	207 · 1000 : 100

12. Ona do‘konda 537 000 so‘m sarfladi. U sotuvchiga 5 ta 100 000 so‘mlik kupyura va 4 ta 10 000 so‘mlik kupyura berdi. Sotuvchi qancha qaytim berishi kerak?

Yondosh mavzu:
Banknotlar va kupyuralar

Ko‘paytirishning xossalari,
yaxlit sonlar





1. Har bir hamyonda qanchadan pul borligini aniqlang.









2. Namuna bo‘yicha yozing va hisoblang.

Namuna:

$30 \cdot 70 = (3 \cdot 10) \cdot (7 \cdot 10) = (3 \cdot 7) \cdot (10 \cdot 10) = 21 \cdot 100 = 2\ 100$

$20 \cdot 40$ $\quad 300 \cdot 90$ $\quad 60 \cdot 8\ 000$ $\quad 7 \cdot 50\ 000$



Ikkita yaxlit sonni ko‘paytirish uchun xayolan ularning nollarini olib tashlash, ko‘paytirishni bajarish, natijaga esa har ikkala ko‘payuvchida nechta nol bo‘lsa, shuncha nolni yozib qo‘yish kerak.

$$7\ 000 \cdot 600 = 4\ 200\ 000$$

3. Ifodalarning qiymatini toping.

a) $70 \cdot 800\ 000$ $\quad$ b) $400 \cdot 70\ 000$

d) $40 \cdot 20 \cdot 3\ 000$ $\quad$ e) $50 \cdot 20 \cdot 200$

f) $20 \cdot 30 + 60 \cdot 70$ $\quad$ g) $500 \cdot 60 + 700 \cdot 30$

4. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) Ekskursiyaga 30 kishi borishi kerak. Ikki kishi uchun 240 000 so‘m pul ketadi. Butun guruh qancha sarflashi kerak?

b) Do‘kondan har biri 500 so‘mdan 20 ta daftar, 1 200 so‘mdan 4 ta ruchka va 15 000 so‘mdan 2 ta bloknot sotib olindi. Hammasi uchun qancha pul to‘landi?

5. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) 46 va 26 sonlari ayirmasini 600 va 3 sonlari bo‘linmasiga ko‘paytiring.

b) 40 va 2 sonlari ko‘paytmasini 130 va 270 sonlari yig‘indisiga ko‘paytiring.

d) 176 va 76 sonlari ayirmasini 234 va 166 sonlari yig‘indisiga ko‘paytiring.

e) Eng kichik besh xonali son bilan 7 sonining ko‘paytmasini eng kichik uch xonali son bilan 5 sonining bo‘linmasiga qo‘shing.

6. Ifodalarni taqqoslang.

$60 \cdot 8000 \square 600 \cdot 80$
$4000 \cdot 7 \square 7000 \cdot 4$
$20 \cdot 50 \cdot 3 \square 600 \cdot 5 \cdot 2$

$a \cdot 900 \square 600 \cdot a$
$b \cdot 700 \square b : 700$
$200 \cdot 5 \cdot c \square c \cdot 500 \cdot 2$

7. Banknotlarning qiymatini o‘rganing. Yirik pullarni almashtirish uchun qancha kichik banknotlar kerak bo‘ladi?



8. Har bir bog'lamda qanchadan pul bor?



80 ta kupyura



60 ta kupyura



30 ta kupyura

9. Dilshod onasidan qancha puli borligini so'radi. Onasi, agar unga yana 150 000 so'm berilsa va u hamma pulning yarmini shirinlikka ishlatsa, 250 000 so'm qolishini aytdi. Uning qancha puli bor edi?

10. Amallarni bajarilish tartibiga ko'ra hisoblang. Banknotlarning qiymati qanday atalishini bilib oling.

$9\,390 - (80 \cdot 60 + 2\,389) + (3\,575 + 2\,976 - 4\,151) \cdot 2$

A 2 201 **L** 7 001 **I** 2 400 **M** 6 551 **O** 7 189 **N** 4 800

11. Ifodalarning qiymatlarini xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

a) $6\,000 \cdot 8\,000 + 60 \cdot 3\,000 + 17 \cdot 10 + 900 : 100$
b) $27 \cdot 100\,000 + 36 \cdot 100 + 630 : 90$

12. Hisoblang.

$20 \cdot 60 + 4\,500 : 100$
$80 \cdot (375 + 525) - 1\,954$
$30 \cdot (14 + 6) \cdot 70$
$2 \cdot (563 - 163) \cdot 90$

13. Kamzul uchun 8 ta 50 000 so'mlik kupyura, 10 ta 20 000 so'mlik kupyura va 30 ta 5 000 so'mlik kupyura berildi. Jami qancha pul to'landi?

25. Yaxlit sonlarni bo‘lish





Yondosh mavzu:
Himoya belgilari

To‘g‘ri va teskari operatsiyalar

1. Har bir bog‘lamda qanchadan pul bor?



30 ta kupyura



90 ta kupyura



20 ta kupyura



270 ta kupyura





144 ta kupyura




225 ta kupyura

2. To‘g‘ri operatsiya natijasini toping. Teskari operatsiyani ko‘rsating.









Yaxlit sonlarni bo‘lishda avval ikkala sonning o‘ng tomonidan bir xil miqdorda nollarni olib tashlash kerak, keyin hosil bo‘lgan sonlarni bo‘lish kerak.

12 0ø̸ø̸ : 6ø̸ø̸ = 120 : 6 = 20


3. Bo‘lishni bajaring.

6 300 : 7	81 000 : 900	36 000 : 300
480 : 8	240 000 : 8 000	620 000 : 20 000
72 000 : 9	8 000 000 : 400 000	84 000 : 4 000

4. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi 720 000 cm^2. Uzunligi 800 cm. Bu to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri qancha?

5. Kun davomida bank 283 478 dona banknot qabul qildi. Shundan 8 312 dona banknot yaroqsiz, eskirgan. Yirtilgan banknotlar eskirganlaridan 1 819 ta ko‘p. Yaroqli banknotlar nechta qoldi?

6. Aziza konsertga chipta tayyorladi. U chiptalarga himoya belgilarini chizishga qaror qildi. Buning uchun chiptaning ma’lum joylarida nuqtalar qo‘ydi.
Ushbu belgilarni daftaringizga chizing. *AB* va *AC* chiziqli kesmalar yasang.



AB va *AC* kesmalarning uzunliklarini toping, ularni millimetrlarda ifodalang. *AC* kesma *AB* kesmadan qancha uzun?

7. Maktab formasi 400 000 so‘m turadi. Uni sotib olish uchun quyidagi kupyuralardan qancha bo‘lishi kerak?






8. Amallarni tartibiga qarab hisoblang. Banknotga chizilgan yashirin naqsh qanday nomlanadi?

a) 70 000 – (56 000 – 34 000) : 100

b) 63 000 : 700 + (560 000 : 80 – 360 000 : 400) + 30 · 800

U	220	**Z**	32 000	**I**	24 000	**B**	7 000
I	30 190	**E**	900	**L**	6 100	**V**	69 780
G	90	**S**	22 000	**T**	16 800	**S**	6 190

9. Har bir banknotning o‘z maxsus nomeri bo‘ladi. Laziza banknotdagi nomerning oxirgi ikkita raqamini ko‘paytirdi, so‘ng olingan ko‘paytma raqamlarining yig‘indisini topdi. Eng katta son 13 chiqdi. Bu son qaysi ikkita raqam bilan tugaydi?

AB 0226149

$4 \cdot 9 = 36$

$3 + 6 = 9$

10. Hisoblang. Qalbakilashtirishdan qo‘shimcha himoyalash vositasi qanday ataladi?

A	72 000 000 : 8 000	**M**	690 : 30
G	560 000 : 70	**O**	550 000 : 5 000
L	6 400 : 80	**R**	93 000 : 300

8 000	110	80	110	8 000	310	9 000	23	23	9 000

11. Nigoraning hamyonida 90 ta 50 000 so‘mlik eski va 30 ta yangi kupyura bor. Yana 100 000 so‘mlik 13 ta kupyurasi bo‘lsa, Nigoraning pullari jami qancha?

Yondosh mavzu:
Narx yorlig‘i

Yig‘indini songa ko‘paytirish,
ustun ko‘rinishida ko‘paytirish





1. Narx yorlig‘idagi sonlarni hisoblang. Har bir yorliqda nechta to‘liq o‘nlik, yuzlik va minglik borligini ayting.



2. Qulay usulda hisoblang. Har bir qatordagi misollarda qanday umumiylik bor?

a) 80 + 630 + 70 + 720; 123 + 289 + 177 + 11
b) (1670 + 380) – 670; (405 + 597) – 97
d) 700 – 142 – 158; (630 – 180) – 220
e) 73 · 8 + 27 · 8; 6 · 55 + 6 · 45
f) 0 · (345 900 – 17 650) (7 · 18 + 19 · 3 – 108) · 0

3. Ikki xonali son bir xonali songa qanday ko‘paytirilishini eslang.


$87 \cdot 6 = (80 + 7) \cdot 6 = 80 \cdot 6 + 7 \cdot 6 = 480 + 42 = 522$

Namuna bo‘yicha hisoblang.

63 · 8 29 · 9 47 · 6 42 · 7

Ikki xonali va bir xonali sonlarni ko'paytirish





4. Ko'paytirishni ustun ko'rinishida bajaring.

$63 \cdot 8$	$29 \cdot 5$	$7 \cdot 19$
$41 \cdot 7$	$2 \cdot 98$	$8 \cdot 93$

5. Bu yeguliklarni xarid qilish uchun qancha to'lash kerak?



14 ming so'm



19 ming so'm



6 ming so'm


6. Tenglamalarni yeching va tekshiring.

$10 \cdot (x \cdot 30) = 20 \cdot 900$ $\qquad$ $280\,000 : z = 1600 : 40$

7. Buyumning narxi bir necha bor o‘zgardi. Avvaliga uning narxi 16 390 so‘mga oshdi, keyin 14 560 so‘mga arzonlashganda, narxi 675 890 so‘mni tashkil qildi. Dastlab mahsulotning narxi qancha edi?

8. Madina tovarlarning narx yorliqlarini chop etishga yordam beryapti.

a) Narx yorlig‘i – bu mahsulot haqida ma’lumot yozilgan varaqa. Yorliq bo‘yi 7 cm va eni 6 cm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘ladi. Ushbu to‘g‘ri to‘rtburchakni daftaringizga chizing. Uning perimetri va yuzini toping.



b) Bitta sahifaga 12 ta narx yorlig‘i sig‘adi. 5 ta sahifada nechta yorliq chop qilsa bo‘ladi?

d) Bitta peshtaxtadagi mahsulotlar uchun 60 ta narx yorlig‘i ishlatiladi. 480 ta yorliq nechta peshtaxtaga yetadi?

9. Har juma kuni ba’zi do‘konlarda tovarlar boshqa kunlardagiga qaraganda arzonroq sotiladi. Ba’zi oylarda 4 ta juma bor, ba’zi oylarda undan ko‘proq bo‘ladi. 5 ta juma keladigan oylar bir yilda nechta bo‘lishi mumkin?

10. Sonlarni ustun ko‘rinishida ko‘paytiring va tovarlarga narx yorlig‘ini osishni o‘ylab topgan odamning kimligini bilib oling.

V	$62 \cdot 9$	**O**	$13 \cdot 7$	**T**	$56 \cdot 3$
L	$58 \cdot 6$	**R**	$41 \cdot 4$	**U**	$45 \cdot 5$

558	225	348	558	91	164	168

11. Bozordan kilogrami 58 ming so‘mdan 4 kg mol go‘shti va 67 ming so‘mdan 2 kg qo‘y go‘shti sotib olindi. Hammasi bo‘lib qancha pul to‘landi?

27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish






Yondosh mavzu:
Tovar narxi

Diagramma,
ustun ko‘rinishida ko‘paytirish,
ifoda

1. Turli kompaniyalarning sutga qo‘ygan narxini taqqoslang.



Eng katta va eng kichik narxlar orasidagi farq qancha?
Sutning narxlarini o‘sish tartibida yozing.

2. Ikki xil usulda ifodalangan ko‘paytirishni o‘rganing.

$354 \cdot 7 = (300 + 50 + 4) \cdot 7 =$
$= 300 \cdot 7 + 50 \cdot 7 + 4 \cdot 7 =$
$= 2100 + 350 + 28 = 2478$

Ko‘paytirishni namunaga qarab bajaring.

243 · 9 441 · 4 216 · 6 723 · 5

27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish

Uch xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish uchun:

1) bir xonali sonni uch xonali sonning tagiga yozamiz;

2) bir xonali sonni uch xonali sonning birliklariga ko‘paytiramiz. Hosil bo‘lgan sondagi birliklarni ko‘payuvchining birliklari ostiga yozamiz, o‘nliklarni esa yodda tutamiz (o‘nliklarning ustiga yozamiz);

3) uch xonali sonlarning o‘nliklari va yuzliklari bilan ham xuddi shunday qilamiz;

4) hosil bo‘lgan sonni o‘qiymiz.









3. Ko‘paytirishni ustun ko‘rinishida bajaring. Yodda tuting, katta son kichik songa ko‘paytirilishi kerak.

781 · 4 3 · 776 406 · 6 322 · 5 6 · 223

4. Taqqoslang. Qaysi holatlarda hisoblash talab qilinmaydi?

a) 234 · 5 ☐ 243 · 6 b) 728 · 4 ☐ 532 · 8

d) 820 · 8 ☐ 913 · 9 e) 316 · 4 ☐ 128 · 9

5. Masalani yeching.

Do‘konda maktab formasi 428 000 so‘m turadi. Uni chegirmada 299 000 so‘mga sotib olish mumkin. Agar chegirmalar vaqtida 3 ta forma sotib olinsa, qancha pulni tejash mumkin?

6. Masalani yeching.

Bitta guldasta 125 000 so‘m, bir quti konfet 47 000 so‘m turadi. Har birida gul va konfet bo‘lgan 3 ta sovg‘aga qancha pul kerak bo‘ladi?

27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish

7. Blits savollar. Masalalarga ifodalar yozing.

a) 4 qadoq margarin uchun n so‘m, 2 xaltacha un uchun esa t so‘m to‘lashdi. Margarin undan necha so‘m qimmat?

b) Kinoteatrga chipta x so‘m, bolalar chiptasi esa y so‘m turadi. 2 ta kattalar va 3 ta bolalar chiptasi uchun qancha to‘lash kerak?

d) Peshtaxtada d quti olcha sharbati, undan 48 quti kam olma sharbati bor. Olcha sharbati olma sharbatidan necha quti ko‘p?

8. Oilada to‘rtta bola bor – Malika, Imron, Madina va Lola. Ular 5, 8, 13 va 15 yoshlarda. Qizlardan biri bog‘chaga boradi, Malika Imrondan kattaroq. Malika va Madina yoshining yig‘indisi uchga bo‘linadi. Har bir bolaning yoshini toping.

9. Supermarketdan ro‘yxat bo‘yicha xarid qilish kerak. Bu mahsulotlarni sotib olish uchun qancha pul ketadi? Tovarlar narxi o‘ng tomonda ko‘rsatilgan.

Ro‘yxat
2 kg sabzi
2 l yog‘
5 kg guruch
3 kg go‘sht



Yog‘
1 litri uchun
12 ming so‘m



Go‘sht
1 kilogrami uchun
56 ming so‘m



Guruch
1 kilogrami uchun
9 ming so‘m



Sabzi
1 kilogrami uchun
6 ming so‘m

10. Misollarni yeching, to‘rt xonali sonlarni kamayish tartibida qo‘yib chiqing. Tovarlarga qo‘yiladigan chegirma yana qanday ataladi?

A 225 · 4	**N** 556 · 3	**D** 954 · 9	**O** 313 · 6
I 768 · 5	**S** 658 · 4	**K** 297 · 8	**T** 129 · 9

28. Ko‘p xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish

Yondosh mavzu:
Valyuta, valyuta kursi

Sonli ifodalar,
yaxlit sonlar





1. Ifodalarni hisoblang va ularga mos qiymatlarni toping. Bu mamlakatlarning milliy valyutalari qanday ataladi?

Argentina
6 300 : 900 + 210 : 70

Janubiy Afrika
70 · 70 – 36 000 : 40

Eron
60 · 30 + 400 · 8

Turkiya
800 · 9 – 5 600 : 7

4 000	10	6 400	5 000
Rend	Peso	Lira	Tuman

2. Savollarga javob berishi uchun ifodalar tuzing.

a) Tadbirkor xorijga ketishdan oldin bankdan 1 000 dollar sotib oldi. Agar 1 dollar 10 970 so‘m bo‘lsa, u qancha so‘m to‘lagan?

b) U qaytgach, ortib qolgan 100 dollarini bankda so‘mga almashtirdi. Bu vaqtda dollar kursi 11 380 so‘m bo‘lgan edi. Tadbirkor foyda ko‘rganmi yoki zarar? Qanchaga?

3. Sonlarni o‘qing. Qaysi xona birliklari ishtirok etmayapti?

a) 800 000 + 5 000 + 400 + 30
b) 1 000 000 + 6 000 + 6
d) 70 000 000 + 4 000 000 + 400 000 + 300 + 70 + 8

28. Ko‘p xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish

Ko‘p xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish uchun:

1) bir xonali sonni ko‘p xonali sonning tagiga yozamiz;

2) ko‘p xonali sonning har bir xonasini bir xonali songa ko‘paytiramiz. Agar xona ustida son yozilgan bo‘lsa, uni ko‘paytmaga qo‘shamiz;

3) bunday yig‘indining birligini javobda xona ostiga yozamiz, o‘nlikni yodda tutamiz – uni navbatdagi xona ustiga yozamiz.







4. Hisoblang.

a) $5\,686 \cdot 6$

b) $63\,045 \cdot 8$

d) $120\,423 \cdot 4 - 6\,783 \cdot 5$

e) $295\,643 \cdot 7 + 5089 \cdot 3$

5. Valyuta kursi – bir mamlakat pul birligining so‘mdagi qiymati. Eng ommabop valyutalarning kursiga qarang*. Qaysi valyuta eng qimmat ekan? Bu qiymatlarni kamayish tartibida yozing.

	Amerika dollari	USD	11 462 so‘m
	Rossiya rubli	RUB	141 so‘m
	Yevro	EUR	12 581 so‘m
	Angliya funt sterlingi	GBP	14 172 so‘m
	Yapon iyenasi	JPY	85 so‘m

Eng katta va eng kichik qiymatlar qanchalik farq qilishini solishtiring.

* Chet el valyutalari kursi 19.04.23-y. holatiga ko‘ra olingan.

6. 5-vazifadagi jadvaldan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:
a) Iroda Zoirovna 5 yevro va 8 Angliya funt sterlingini so‘mga alishtirsa, necha so‘m oladi?
b) kim ko‘p pul sarflagan: 7 Yaponiya iyenasini sotib olgan Madinami yoki 9 Rossiya rublini sotib olgan Azizami?

7. Har bir yevro banknoti o‘z o‘lchami va rangiga ega. 50 yevrolik kupyuraning bo‘yi 140 mm, eni 77 mm, sariq rangli to‘rtburchak shaklida. Daftaringizga shu o‘lchamda to‘rtburchak chizing. Uning perimetri qancha bo‘ladi?


8. Ko‘paytirish jadvalida ko‘paytuvchilarning bir qismi o‘chirilgan, ko‘paytmalarning bir qismi esa harflar bilan almashtirilgan. Qaysi ikkita harf bir xil sonni ifodalayapti?

·		9			6
	25	P	15	40	30
2	Y	E	V	R	O
	20	S	O‘	M	24
	35	O	21	56	42

9. Hisoblang. Amallar tartibini belgilang.
a) $73\,957 \cdot 7 - (600\,000 + 640\,000 : 8\,000)$
b) $(221\,721 + 78\,279) : 600 + 402\,234 \cdot 9$

10. Istalgan banknotni o‘lchang. Daftaringizga xuddi shunday o‘lchamda to‘g‘ri to‘rtburchak chizing va uning perimetrini toping.

29. Ko‘p xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish






Yondosh mavzu:
Valyutalar kursining o‘zgarishi

10, 100 ga ko‘paytirish,
grafik ma’lumotlar

1. Dollar kursi oxirgi haftada qanday o‘zgarganiga e’tibor bering.



a) 24-fevralda dollar kursi qanday edi? 3-martda-chi? 9-martda-chi?
b) Qaysi sanada dollar kursi 10 900 so‘mga teng bo‘ldi?
d) 24-fevraldan 9-martgacha dollar kursi necha so‘mga ortdi?


2. Bir sutkada bir yevroning narxi 145 so‘mga pasaydi. Agar kecha 1 yevro 12 310 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kurs qanday bo‘ldi?

3. Hisoblang.

a) $2\,394 \cdot 5$
b) $(3\,000 + 400 + 50 + 6) \cdot 7$
d) $67\,203 \cdot 4$
e) $(80\,000 + 2\,000 + 300 + 30) \cdot 9$

4. O‘tgan oyning boshida bir dollar 10 540 so‘m edi. Hozir bir dollar 10 970 so‘mga teng. Agar internet-do‘konda buyurtma berilgan ko‘ylakning narxi 9 dollar bo‘lsa, narx necha so‘mga o‘zgaradi?

5. Sonlarni o‘qing. Ularni o‘sish tartibida yozing.



6. Bir yevroda 100 yevrosent bor. Hisoblang.
3 yevroda, 80 yevroda, 1 500 yevroda qancha yevrosent bor?
Agar 2 300 yevrosent almashtirilsa, qancha yevro bo‘ladi?
76 000 yevrosent-chi?

7. Santimetrlarda ifodalang va hisoblang.
6 m 3 dm 5 cm + 8 m 5 dm 7 cm – 2 m 4 dm 9 cm
7 m 6 dm 2 cm + 3 m 4 dm 2 cm – 45 dm 8 cm
6 m 5 cm – 2 m 3 dm 7 cm
7 m 34 cm – 52 dm 6 cm

8. Tenglamalarni yeching.
$(x$ – 3 dm 8 cm) · 3 = 2 dm 7 cm
$(y$ + 8 cm 2 mm) : 4 = 6 cm 4 mm

29. Ko‘p xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish

9. 1 dollar = 100 sent. Bu yig‘indilarni ular qiymatining o‘sishi tartibida qo‘yib chiqing. Eng katta va eng kichik miqdor o‘rtasidagi farq qancha?

6 dollar 20 sent		12 dollar 50 sent		11 dollar 120 sent
	12 500 sent		6 020 sent	

10. Amallarning to‘g‘ri tartibini ko‘rsatib, misollarni yeching. Qadimda mamlakatimiz hududida ishlatilgan kumush tanga qanday nomlanganini toping.

98 746 – (56 938 + 3 272 · 5) + 9 · 7 599 · 3

B	245 781	**A**	25 448	**M**	230 621	**R**	68 391
D	16 360	**I**	73 298	**K**	74 371	**H**	205 173

11. Quyidagi sonlar yozuvida nechta nol bo‘ladi:
Million qo‘shuv ming qo‘shuv bir qo‘shuv million qo‘shuv ming qo‘shuv ikki qo‘shuv million qo‘shuv ming qo‘shuv uch qo‘shuv million qo‘shuv ming qo‘shuv to‘rt?

12. Aziza so‘m va dollarda pul yig‘di. Hozirda 356 ming so‘m qog‘oz puli, 68 ming so‘m tangasi bor. Bundan tashqari, uning jamg‘armasida yana 8 dollar bor. Ayni paytda dollar kursi 11 095 so‘m bo‘lsa, Aziza so‘m hisobida qancha pul yig‘di?

13. Hisoblang.

a) 56 801 · 9 b) 345 567 · 2 d) 203 804 · 5
e) 278 542 · 3 f) 604 850 · 6 g) 1 780 434 · 7

Yondosh mavzu:
Daromad va xarajat

Jadvallar,
ko‘p xonali sonlar





1. Ifodalarni hisoblang va ularning qiymatini toping. Yashil ramkadagi so‘zlarda qanday umumiylik bor? Qizil ramkadagi so‘zlarda-chi?

$72 \cdot 5 + 15 \cdot 3$ Ish haqi	$16 \cdot 3 + 14 \cdot 2$ Transport xarajatlari	$720 - 6 \cdot 90$ Nafaqa
$820 - 9 \cdot 9 - 10$ Qarzlar	$300 - 2 \cdot 7 \cdot 10$ Stipendiya	$640 : 8 - 7 \cdot 3$ Xaridlar

2. Qanday ifodalarni hisob-kitoblarsiz taqqoslash mumkin? Ularni og‘zaki taqqoslang.

a) $979 \cdot 13 \square 979 \cdot 17$ b) $728 + 425 \square 4 \cdot 301$

d) $823 \cdot 45 \square 823 \cdot 22$ e) $342 : 4 \square 342 \cdot 4$

Qaysi ifodalar juftini hisoblamasdan taqqoslab bo‘lmaydi? Bu ifodalarning qiymatlarini daftaringizga yozing.

3. Namunaga qarab ko‘paytirishni bajaring.

Namuna:

$32 \cdot 12 = 32 \cdot (10 + 2) = 32 \cdot 10 + 32 \cdot 2 = 320 + 64 = 384$

$24 \cdot 11$ $42 \cdot 32$ $15 \cdot 12$ $86 \cdot 24$



30. Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirish



Ikkita ikki xonali sonni ko‘paytirish uchun:

1) birinchi sonni ikkinchi sonning birliklariga alohida ko‘paytiring;

2) birinchi sonni ikkinchi sonning o‘nliklar soniga alohida ko‘paytiring;

3) olingan natijalarni qo‘shing.



Sonning birliklar bo‘yicha ko‘paytmasi birliklar ostiga o‘ngdan chapga, sonning o‘nliklar ko‘paytmasi esa o‘nliklar ostiga yoziladi.

O‘nliklar soni oxiridagi nol, odatda, yozilmaydi.



3. Misollarni yeching. Amallarning bajarilishini tushuntiring.

24 · 25 52 · 55 91 · 86 59 · 68



4. Oila har oyda 45 ming so‘m qarz to‘lashi kerak. Oila yil davomida qancha to‘lashi kerak?



5. Oilaning daromadini ko‘p xonali sonlar ko‘rinishida yozing. Oylik daromadining yig‘indisini aniqlang.

Otaning maoshi	7 mln. 700 ming so‘m
Onaning maoshi	4 mln. 150 ming so‘m
Buvining pensiyasi	840 ming so‘m
Kenja o‘g‘ilning nafaqa puli	450 ming so‘m
Otaga qo‘shimcha mukofot	720 ming so‘m
Jami	



6. Oilaning bir oylik xarajatlarini hisoblang.

Oziq-ovqat mahsulotlari	3 900 000 so'm
Kiyim-kechak	2 600 000 so'm
Yo'lkira	920 000 so'm
Dori-darmon	400 000 so'm
Kommunal xizmatlar	400 000 so'm
Jami	



7. 5- va 6-vazifalarning natijasidan kelib chiqib, o'ylab ko'ring. Bu oila televizor sotib olish uchun oyiga 450 000 so'm ajrata oladimi?



8. Oila qolgan pulni uyning bitta xonasini ta'mirlashga sarflamoqchi. Agar xonaning uzunligi 17 m va kengligi undan 2 m kam bo'lsa, uning yuzi qancha bo'ladi?



9. Ikkita yosh bola va uchta katta odam uchun kinoga chipta 160 ming so'm bo'ladi. Kattalarning chiptasi bolalarnikiga qaraganda ikki marta qimmat. Ikkita katta odam va uchta bola uchun chiptaga qancha to'lash kerak?



10. Ikki xonali sonlarni ustun ko'rinishida ko'paytiring.

a) $45 \cdot 37$ b) $29 \cdot 43$ d) $27 \cdot 62$

e) $55 \cdot 56$ f) $32 \cdot 89$ g) $81 \cdot 31$



11. Planshet 316 dollar turadi. Agar yil davomida bo'lib to'lansa, oyiga 31 dollardan to'lash kerak bo'ladi. To'lov qaysi holatda ko'proq bo'ladi: birdaniga to'langandami yoki muddatli to'lovdami? Birdaniga to'langanda qancha pulni tejab qolish mumkin?

31. Ko‘p xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirish

Yondosh mavzu:
Budjetni rejalashtirish

Ko‘paytirish jadvali,
ko‘p xonali son,
murakkab ifodalar





1. Budjetni rejalashtirishda avval oilaning zaruriy xarajatlari ro‘yxati tuziladi. Misollarni yeching va bunday ro‘yxatning qanday atalishini aniqlang.

A	$7 \cdot 7$	**M**	$45 : 9$	**I**	$6 \cdot 7$
’	$6 \cdot 5$	**Z**	$49 : 7$	**E**	$2 \cdot 5$
O	$81 : 9$	**K**	$64 : 8$	**Ch**	$30 : 10$
S	$4 \cdot 9$	**L**	$4 \cdot 3$	**T**	$7 \cdot 3$
V	$6 \cdot 8$	**N**	$5 \cdot 5$	**U**	$32 : 8$

42	36	21	10	30	5	9	12


36	49	48	49	21	42


Ko‘p xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirish

Sonlarni ko‘paytirishda ikki xonali son ko‘p xonali sonning ostiga, ya’ni birliklar ostiga birliklar, o‘nliklar ostiga o‘nliklar yoziladi.

Sonlar ikki xonali sonlarni ko‘paytirishda bo‘lgani kabi dastlab, birinchi songa ikkinchi sonning birliklari, keyin esa o‘nliklari ko‘paytiriladi.








2. Ko‘paytirishni tushuntirish bilan bajaring.

a) 582 093 · 25 b) 390 024 · 48

d) 700 892 · 37 e) 1 092 056 · 42

3. Avtobus va metroda yo‘lkira qiymati 1 400 so‘mdan. Ilyos maktabga ikkita transportda yetib boradi. U haftasiga uch marta kechqurun mashg‘ulotlarga metroda boradi. Ilyos bu oyda yo‘lkiraga qancha pul sarflaydi?

4. Iste’mol savatiga nimalar kirishini o‘rganing.
Iste’mol savatining umumiy qiymatini aniqlang.



5. Aziza to‘rt xonali kodni unutdi. U birinchi raqam 1 ekanini eslaydi, qolgan uchta: 2, 3 va 7 raqamlarining tartibini eslay olmadi. Ushbu raqamlar asosida nechta turli xil parollarni hosil qilish mumkin?

31. Ko‘p xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirish

6. Bu kupyuralardan 578 000 so‘m va 342 000 so‘m miqdoridagi pullarni to‘plang. Sizga qancha va qanday banknot kerak bo‘ladi?



7. Kommunal xizmatlar bizning uyimizni sovuq va issiq suv, isitish tizimi, elektr bilan ta’minlab beruvchi sohadir. Aprel oyida kommunal xizmatlar uchun 127 000 so‘m to‘landi. Bu iyun oyidagiga qaraganda 23 000 so‘m qimmat, fevral oyidagiga qaraganda 42 000 so‘m arzon. Iyun va fevral oylarida kommunal xizmatlar to‘lovi qancha bo‘lgan?

8. Misollarni amallar tartibi bo‘yicha yeching.

$43 \cdot (26\,200 - 310 \cdot 70) + 4\,200 : (77\,264 - 92 \cdot 817)$

9. Hayvonot bog‘ida 3 ta katta ayiq va bitta ayiqcha bor. Ularga haftasiga 28 kg olma beriladi. Ayiq bolasi kattalaridan ikki barobar kam yeydi. Katta ayiqlar qancha olma yeydi?

10. Misollarni amallar tartibi bo‘yicha yeching.


$25\,786 \cdot 37 + 24 \cdot (45\,980 + 12\,890) - (45\,793 - 23\,451) \cdot 24$

11. Asosiy xarajatlardan biri oziq-ovqatlardir. Aziza hisoblab ko‘rsa, bir kishiga kunlik ovqat uchun o‘rtacha 41 170 so‘m kerak bo‘lar ekan. Unga kuz faslida qancha pul sarflanishini hisoblashga yordam bering.

Yondosh mavzu:
Naqd va naqd pulsiz hisob-kitob

Ifodalar,
ko‘paytirishning xossalari






1. Onaning plastik kartasiga oylik maoshi – 2 380 000 so‘m tushdi. Ona:
214 000 so‘m bolalar bog‘chasiga;
350 000 so‘m sport to‘garagiga;
250 000 so‘m oziq-ovqatlar sotib olishga sarfladi;
400 000 so‘m bankomatdan naqd pul yechib oldi.
Qancha pul sarflandi? Kartada qancha qoldi?

Ko‘p xonali sonni uch xonali songa ko‘paytirish

Ko‘p xonali sonni uch xonali songa ko‘paytirish uchun ikkinchi sonning har bir xonasini birinchi songa ketma-ket ko‘paytirish va hosil bo‘lgan barcha ko‘paytmalarni qo‘shish kerak.





Ustun ko‘rinishida ko‘paytirganda, sonlar bir-birining ostiga yoziladi, bunda birinchi ko‘paytuvchi sifatida kattaroq sonni tanlash qulayroq.

Har bir xonani ko‘paytirishda ko‘paytma ushbu xonaga mos keladigan pozitsiyadan boshlab o‘ngdan chapga qarab yoziladi.

32. Ko‘p xonali sonni ko‘p xonali songa ko‘paytirish

2. Ko‘paytirishni bajaring.

4572×386 $\quad$ 70805×126 $\quad$ 5755×863 $\quad$ 87825×217

3. Maktabga 535 ta parta va 57 ta doska kerak. Bitta parta 923 545 so‘m, doska undan 325 987 so‘m arzon. Parta va doskalar sotib olish uchun qancha pul kerak?

4. Tenglamalarni yeching.

a) $(x + 48\,629) : 316 = 565$ $\quad$ b) $(800\,000 - y) : 68 = 5\,698$

5. Bo‘sh kataklarga shunday sonlarni qo‘yingki, natijada hisoblashlar to‘g‘ri bo‘lsin.

$$\begin{array}{r} \square\,567\,80\square \\ +\;7\,506\,\square 89 \\ \hline 10\,0\square\square\,894 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 8\,0\square 8\,0\square 3 \\ -\;\square\,17\,1\square 57 \\ \hline 1\square 56\,75\square \end{array} \qquad \begin{array}{r} \times\;\square 75\square \\ \hline 8 \\ \hline \square 8\square 16 \end{array}$$

6. Do‘kon egasi kerakli tovarlarni ro‘yxatga muvofiq sotib oladi. Uning kartasida 1 million 430 ming so‘m, 1 million 220 ming so‘m naqd puli bor. Yetadimi?

Ro‘yxat

127 ta marker
625 ta qalam
163 ta o‘chirg‘ich
218 ta chizg‘ich



Marker
1 donasi
3 563 so‘m



Qalam
1 donasi
1 257 so‘m



O‘chirg‘ich
1 donasi
2 415 so‘m



Chizg‘ich
1 donasi
4 028 so‘m

7. Amallarni qulay usulda bajaring.


$2 \cdot 237 \cdot 5$	$4\,567 \cdot 2 \cdot 5$
$678 \cdot 4 \cdot 25$	$25 \cdot 9\,705 \cdot 4$
$8 \cdot 125 \cdot 654$	$767 \cdot 8 \cdot 125$

Yodda tuting!

$2 \cdot 5 = 10$
$4 \cdot 25 = 100$
$8 \cdot 125 = 1000$

8. Amallarni algoritmga muvofiq bajaring. Javoblarni o‘sish tartibida joylashtiring. Xariddan so‘ng olingan qaytimning yana qayta kartaga tushishi qanday ataladi?

x	321	748	623	454	908	616
y						
	K	**E**	**B**	**E**	**K**	**Sh**



9. Raqamlar orasiga amal ishoralarini shunday qo‘yingki, natijada to‘g‘ri tengliklar hosil bo‘lsin.

5 5 5 5 = 1 5 5 5 5 = 2 5 5 5 5 = 2

10. Ko‘paytirishni ustun ko‘rinishida bajaring.

$37\,037 \cdot 24$	$72 \cdot 308\,207$	$45\,657 \cdot 234$
$735 \cdot 392$	$6\,032 \cdot 113$	$928 \cdot 4\,903$


11. Aziza dugonalari uchun bir xil sovg‘alar olmoqchi: daftar, qalam, taqvim. Bitta taqvim 7 895 so‘m, qalam undan esa 3 786 so‘m arzon turadi. Daftar narxi esa taqvim va qalamning umumiy narxiga teng. Aziza 8 ta sovg‘a uchun jami qancha sarflashi kerak?

33. Yaxlit sonlarni ko‘paytirish


Yondosh mavzu:
Onlayn to‘lovlar

Yaxlit sonlar,
tengliklar,
chizma va ifodalar





1. Beshinchi bo‘lakda qanday son turadi? O‘ninchi, yigirmanchi, o‘ttiz oltinchi va yuzinchi bo‘laklarda-chi?



2. Yaxlit sonlar qanday ko‘paytirilishini eslang. Hisoblang.

700 · 400	30 · 5 000	8 000 · 6 000
4 000 000 · 20	12 000 · 30	42 000 · 2 000

Sonning qiymatli qismi – sonning birinchi raqamidan oxirgi nolga teng bo‘lmagan raqamigacha bo‘lgan barcha raqamlari.


2 003 700
Sonning qiymatli qismi



Yaxlit sonlarni ko‘paytirish uchun:

a) Sonlarning qiymatli qismlarini ko‘paytirish;

b) Natijaga ikkala ko‘paytuvchining o‘ng tomonida qancha nol bo‘lsa, shuncha nolni qo‘shib yozish kerak.




3. Misollarni yeching. Javoblarni kamayish tartibida yozing.


650 · 2 300 54 · 47 000 7 200 · 190 93 000 · 3

4. Teatr chiptalarini teatr veb-sayti orqali buyurtma qilish mumkin. Bitta chiptaning narxi bola uchun 32 000 so'm, kattalarniki undan 16 000 so'm qimmat turadi. 30 nafar bola va 20 nafar katta yoshdagi tomoshabin uchun qancha to'lash kerak?

5. Sxema bo'yicha ifoda tuzing. Uning qiymatini hisoblang.



6. Avtomobil yo'l bo'ylab A, B, C va D shaharlardan o'tdi. A shahardan B shahargacha bo'lgan yo'l 72 km, B dan C gacha bo'lgan yo'l undan 18 km uzunroq. C shahardan D shahargacha bo'lgan yo'l B dan C gacha bo'lgan masofadan 3 marta qisqa. Agar umumiy bosib o'tilgan masofa 300 km bo'lsa, avtomobil yo'lning oxirgi qismida necha kilometr yurgan?



7. 100 km yo'l uchun Spark 6 litr benzin sarflaydi. 6-topshiriqda aytilgan masofa bo'ylab sayohat uchun mashinaga qancha benzin kerak bo'ladi? Agar bu yo'l har 100 km ga 12 litr yoqilg'i sarflaydigan Orlando avtomobilida bosib o'tilsa, qancha yoqilg'i sarflanadi?


8. Ifodalarni taqqoslang.


a) $a \cdot 4\,200 \square a \cdot 2\,400$ b) $900 : m \square 600 : m$

d) $625 \cdot b \square b \cdot 6\,250$ e) $y : 443 \square y : 43$


9. Parvoz chiptalarini onlayn buyurtma qilish mumkin. Toshkentdan Minskka chipta narxi 4 787 474 so'm. 12 kishidan iborat guruhga borish va qaytish uchun qancha pul kerak bo'ladi?

10. Hisoblashdagi barcha xatoliklarni toping. Bu misollarni to'g'ri yeching.











11. Diyorga 100 ming so'mlik pulni ikkita 40 ming so'mlik va bitta 20 ming so'mlik banknotga yoki uchta 50, 30 va 20 ming so'mlik banknotlarga almashtirish taklif qilingan. Diyor firibgarlarga duch kelganini qanday tushundi?

12. Amallar tartibini aniqlang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) 890 · 35 600 + 12 240 · 40 – 3 785 · 600

b) 24 600 · (400 – 240) + 1 500 · (34 600 – 18 450)

13. Mebellar to'plami stol va 6 ta stuldan iborat. Butun to'plam 7 638 000 so'm turadi. Har bir stulning narxi 567 000 so'm. Stol qancha turadi?

Yondosh mavzu:
Banklar, omonatlar va kreditlar

Ustun ko‘rinishida ko‘paytirish, muntazam ko‘pburchaklar







1. Tenglamalarni yeching. Topilgan ildizlarni kamayish tartibida joylashtiring. Pulni qabul qiluvchi va saqlovchi yoki qarz beruvchi tashkilot qanday nomlanadi?

N $(x + 189) \cdot 6 = 30 \cdot 40$
K $5 \cdot (z + 83) - 6 = 444$
A $800 : (y - 42) = 1\,600 : 40$
B $(y - 92) : 7 = 5\,600 : 800$

2. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang. Yoyilmada qaysi xona birliklari ishtirok etmayapti?

730 806 3 090 700 509 1 000 000

3. Masalaning yechilishini o‘rganing. Uni tushuntiring.
Sarvar uy sotib olmoqchi. Agar har oyda 4 550 000 so‘m ajratsa, uy olish uchun 9 yil pul yig‘ishi kerakligini hisobladi. Uy qancha turadi?

Yechish:


1) $\times \begin{array}{r} 12 \\ 9 \\ \hline 108 \end{array}$ (oy) – 9 yilda


2) $\begin{array}{r} 4550000 \\ \times\ 108 \\ \hline 36400 \\ +\ 000 \\ \hline 455 \\ \hline 491400000 \end{array}$ (so‘m) – turadi.

34. O‘rtasida nol bo‘lgan sonlarni ko‘paytirish

O‘rtasida nol kelgan ko‘p xonali sonni qulay usulda ko‘paytirish uchun 0 ga ko‘paytirish qatorini o‘tkazib, keyingi xona birligidan davom etish mumkin.







4. Hisoblang.

738 000 · 203 802 · 379 120

154 500 · 1 207 607 · 53 000

5. Kredit – banklar tomonidan vaqtincha foydalanish uchun beriladigan pul. Planshet sotib olish uchun Ma’ruf 12 oyga kredit oldi. Har oyda 507 000 so‘mdan to‘lagan. Agar planshetni bir yo‘la 5 860 000 so‘m pul to‘lab sotib olish mumkin bo‘lsa, Ma’ruf kreditga qancha qo‘shimcha pul to‘laydi?

6. Bu yerda nechta muntazam ko‘pburchak borligini ko‘zingiz bilan chamalab aniqlang. Chizg‘ich yordamida o‘zingizni tekshirib ko‘ring.



7. Ushbu muntazam shakllarning perimetrlari uchun ifodalar tuzing. Ularning qiymatini hisoblang.



406 cm



503 cm



207 cm

8. Bino bayram arafasida 15 ta sakkiz qirrali yulduzchalar bilan bezatildi. Bitta yulduzchani tayyorlashga 207 000 so‘m ketdi. Hammasini tayyorlashga qancha pul sarflandi?

9. Bankning 400 nafar mijozidan 234 nafari 507 ming so‘m kredit oldi. Qolganlarning har biriga 208 ming 600 so‘mdan berildi. Kredit uchun qancha pul ajratildi?

10. Bank xodimi oylarning birida 5 ta shanba, 5 ta yakshanba, 4 ta juma va 4 ta dushanba borligiga e’tibor berdi. Bu oy haftaning qaysi kunidan boshlangan?

11. Amallarni tartibi bo‘yicha hisoblang.

$82\,300 \cdot 506 + 302 \cdot (48\,000 - 12\,907)$

$819\,000 - 605 \cdot 18 + 301 \cdot 456\,000$

12. Furqat aka pullarini bankka qo‘ydi. Buning uchun bank unga har oy 324 000 so‘m to‘laydi. Furqat aka 17 yildan keyin qancha pul oladi?

35. Masalalar yechish

Yondosh mavzu:
Ishlab chiqarish

Massa, qiymat, jadval





1. Taqqoslang.

6 m ☐ 59 dm
73 cm ☐ 7 cm 3 mm
4 dm ☐ 404 mm

45 600 · 42 900 ☐ 67 090 · 60 790
50 000 · 13 000 ☐ 50 000 · 9 000
78 000 : 6 000 ☐ 78 000 · 3 000

2. Rasm asosida ifodalar yozing va ularning qiymatini toping.
Hamid bozorda xarid qilyapti.



1 kg
6 300 so‘m




1 l
16 500 so‘m


a) Hamid 7 kilogramm kartoshka uchun qancha pul berishi kerak?
b) 3 shisha yog‘ uchun qancha to‘lashi kerak?
d) U barcha xarid uchun qancha pul sarflaydi?
e) 100 000 so‘mdan qancha puli qoladi?


3. 8 dona g‘isht ishlab chiqarish uchun 32 kg loy kerak bo‘ladi.
14 250 dona g‘isht ishlab chiqarish uchun qancha loy kerak?


4. Hisoblang.
a) 14 dm 3 cm – 9 dm – 29 cm + 1 dm 7 cm
b) 3 m 6 dm – 2 m 7 dm + 14 dm + 5 m + 32 cm

5. Chizma asosida tenglamalar yozing va noma'lum miqdorni toping.

a) 

b) 

d) 

e) 

6. Tenglamalar yozing. Ularni yeching va tekshiring.

a) Elbek bir sonni o'yladi, unga 13 600 ni qo'shib, 70 va 8 300 ning ko'paytmasiga teng qiymat oldi. Elbek qanday sonni o'ylagan?

b) Mohigul 200 000 dan o'ylagan sonini ayirib, 156 va 708 ning ko'paytmasiga teng natijani oldi. U qanday sonni o'ylagan?

7. Madinaning onasi qandolat sexida ishlaydi. U tvorogli pishiriq uchun maxsus retseptdan foydalanadi.



Xamirning massasi necha kilogramm bo'ladi?

Tarkibi	Miqdori, kg
Bug'doy uni	100
Tuz	1
Shakar	80
Sariyog'	60
Tuxum kukuni	23
Tvorog	120
Qatiq	25
Murabbo	50

8. Hisoblang.

$(5\,000 - 87 \cdot 39) \cdot (90 \cdot 205 - 12\,730) + 6\,300 : 90$

35. Masalalar yechish

9. Ushbu ifodalarda qanday so'zlar yashirilgan? Ular nimani anglatadi?


a) 760 102 – (63 000 : 70 + 45 · 3 546) + 65 879

A	171 456	**M**	665 511	**K**	900	**T**	183 838
I	159 570	**I**	599 632	**S**	140 670	**R**	160 470

b) 6 · (46 923 – 5600 : 70 · 27) + 28 158

I	2 160	**M**	296 736	**CH**	80	**T**	228 157
O	18 158	**N**	133 732	**Q**	44 763	**I**	268 578

10. Barcha katta uchburchaklar kichik o'lchamdagi uchburchaklardan tashkil topgan. Agar bo'yalgan kichik uchburchakning massasi 1 kg ga teng bo'lsa, butun uchburchakning massasi qancha bo'ladi?



11. Tenglamalar yozing. Ularni yeching va tekshiring.

a) Jasur bir son o'yladi, undan 18 700 ni ayirdi va 410 va 120 ning ko'paytmasiga teng qiymat oldi. Jasur qanday sonni o'ylagan?

b) Madina 270 000 dan o'ylagan sonini ayirib, 189 va 754 ning ko'paytmasiga teng natija oldi. U qanday sonni o'ylagan?

12. Ifoda yozing va uning qiymatini toping.

Non zavodi soatiga 800 paket teshikkulcha ishlab chiqaradi. Novvoyxonada ish kuniga 8 soat davom etadi. Kuniga necha paket teshikkulcha tayyorlanadi?

Aprel oyida novvoyxona har kuni ishlab, necha paket teshikkulcha pishirgan?


Yondosh mavzu:
Biznes

Xarajatlar va daromadlar
yuzlar, diagrammalar






1. Diagramma bo'yicha taqqoslang, qaysi oyda Ominaning xarajatlari ko'proq bo'lgan? Nima uchun?



2. Shakllarning yuzini kvadrat santimetrlarda ifodalang.



36. Masalalar yechish

3. Hisoblang. Javoblarni kvadrat detsimetrlarda ifodalang.


a) 45 m^2 13 dm^2 + 37 m^2 92 dm^2 – 23 m^2 65 dm^2

b) 49 m^2 25 dm^2 – 26 m^2 63 dm^2 + 17 m^2 24 dm^2

d) 61 m^2 92 dm^2 + 14 m^2 92 dm^2 · 7

e) 16 m^2 28 dm^2 · 3 – 11 m^2 93 dm^2

4. Qaysi mato bo'lagining yuzi kattaroq?



5. Taqqoslang.

a) 800 200 ☐ 82 000

b) 350 000 ☐ 53 000

d) 7 000 030 ☐ 7 000 200

e) 111 100 ☐ 100 111

f) 456 · 320 ☐ 456 · 230

g) 126 · 78 ☐ 126 · 780

h) 2 175 : 75 ☐ 2 175 : 29

i) 9 880 : 20 ☐ 9 000 : 20

6. Maftuna deraza pardalari va darpardalar tikadi. Bitta darparda uchun 25 m shoyi, 13 m tafta va 7 m bezakli bog'ich kerak bo'ladi. Shaharning uchta tumanida sifatli materiallarni sotib olish mumkin bo'lgan do'konlar bor.

	Shoyi	Tafta	Bog'ich
Chilonzor	76 000 so'm/m	36 000 so'm/m	15 000 so'm/m
Yunusobod	72 000 so'm/m	34 000 so'm/m	28 000 so'm/m
Yashnobod	73 000 so'm/m	33 000 so'm/m	21 000 so'm/m

Qaysi do'kondan xarid qilish yaxshiroq?



Daromad – bu mahsulotni sotishdan olingan pul.

Xarajat – bu tovar ishlab chiqarishga sarflangan mablag'lar.

Foyda – bu korxonaning biznes daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq.

Foyda = Daromad – Xarajat

7. Anora har xil soch taqinchoqlari tayyorlaydi. Har bir taqinchoqni yasash uchun 120 000 so'm sarflaydi va har birini 200 000 so'mdan sotadi. Agar u 12 ta taqinchoq sotsa, qancha pul ishlab olishi mumkin?



8. Farida opasi bilan o'yin o'ynayapti. Har bir turda u opasidan yo 3 ta fishka yutib olishi yoki 4 ta fishka yutqazishi mumkin. Farida opasidan 22 ta fishkani kamida nechta turda yutib olishi mumkin?

9. Hisoblang. Javoblarni kvadrat detsimetrlarda ifodalang.

a) 19 m^2 22 dm^2 + 46 m^2 39 dm^2 – 18 m^2 73 dm^2

b) (31 m^2 75 dm^2 + 24 m^2 46 dm^2) · 4

10. Malikaning onasi bayram dasturxoniga 7 kg yeryong'oq, 5 kg mayiz va 3 kg yong'oq sotib olmoqchi. Qaysi bozordan xarid qilishi foydaliroq?

	Yeryong'oq	Mayiz	Yong'oq
Oloy	42 500 so'm/kg	77 500 so'm/kg	132 000 so'm/kg
Mirobod	41 300 so'm/kg	74 500 so'm/kg	133 700 so'm/kg

37. Narx, miqdor va qiymat

Yondosh mavzu:
Tovarlar va xizmatlar

Jadvallar,
harfiy ifodalar,
tenglamalar





1. Bitta daftarning narxi 700 so'm. 8 ta daftar qancha bo'ladi?





Qiymat = Narx · Miqdor
$C = a \cdot n$
Narx = Qiymat : Miqdor
$a = C : n$
Miqdor = Qiymat : Narx
$n = C : a$

2. Jadvalni to'ldiring.

	Narx	Miqdor	Qiymat
Olma	22 800 so'm/kg	7 kg	
Qalam	3 000 so'm/dona		60 000 so'm
Tasma		5 m	45 000 so'm

3. Murod 12 000 so'mlik 8 dona muzqaymoq va 23 000 so'mlik 3 dona tort olmoqchi. Hamyonida 200 ming so'm bor. Unda qancha pul qoladi?

4. Masalalarga mos ifodalar tuzing. Ularni hisoblang.

a) 5 kilogramm kartoshka 30 000 so'm bo'lsa, 7 kilogramm kartoshka qancha bo'ladi?

b) 6 xalta un 36 000 so'm, 6 xalta guruchning narxi 48 000 so'm turadi. Bir xalta guruch bir xalta undan qancha qimmat?

d) Bir shisha o'simlik yog'i narxi 13 000 so'm bo'lib, bir quti sut narxidan 4 000 so'mga arzon. 3 shisha yog' va 4 quti sutning narxi qancha bo'ladi?


5. Jadvalga qarab masala tuzing.

	Narx *a*	Miqdor *n*	Qiymat *C*
Bo'g'irsoq	1 600 so'm/dona	3 dona	? so'm
Somsa	2 300 so'm/dona	6 dona	? so'm

? so'm

Bu masalani daftaringizda yeching.

6. Sirk chiptalarining ranglari va narxlari har xil. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun shunday?




6 kishilik oila sirkka borish uchun 300 000 so'm sarflashni rejalashtirilgan. Qaysi chiptalarni sotib olish ularga foydali bo'ladi?

7. Har bir ifoda uchun uchta tenglik o'ylab toping.
a) a soni b sonidan 3 ta ko'p.
b) c soni d sonidan 7 marta katta.

8. Tenglamalarni yeching.
a) $45\,600 + (720\,675 - y) = 551\,925$
b) $289\,410 - (x + 13\,135) = 76\,499$

9. Amal qanday bajarilganini toping. Berilgan masalani shunga qarab bajaring.



10. Jadval asosida masalani yeching.

	Narx ***a***	Miqdor ***n***	Qiymat ***C***
Chit	27 500 so'm/m	9 m	? so'm
Atlas	48 300 so'm/m	7 m	? so'm

? so'm

11. Tenglamalarni yeching.
a) $178\,300 + (x + 340\,125) = 551\,925$
b) $423\,700 - (x - 60\,498) = 121\,156$

Yondosh mavzu:
Daromadlar va xarajatlar

Diagrammalar,
sonlarni taqqoslash,
soat va minut





1. Furqat aka o'zining daromadlari va xarajatlarini jadvalga yozib boradi. U foyda va zararlarni qanday hisoblaganini tushuntiring.

	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
Ishlab topdi	350 000	380 000	620 000	840 000
Sarfladi	280 000	400 000	480 000	960 000
Foyda	70 000		140 000	
Zarar		20 000		120 000

2. Farhod fermerdan bir kilogrami 5 000 so'mdan kartoshka sotib oldi va uni bozorda bir kilogramini 7 000 so'mdan sotdi.

a) Uning bir kilogrammdan oladigan foydasi qancha?

b) Agar u 50 kg kartoshka olib sotsa, uning umumiy foydasi qancha bo'ladi?

d) Agar u kartoshka xarididan tashqari yo'lkiraga 20 000 so'm va bozordagi joyning ijarasiga 40 000 so'm sarflasa, qanday sof foyda oladi?

3. Furqat akaning do'koni sentabr oyida 4 million 678 ming so'm foyda ko'rdi. Keyingi ikki oyning har birida uning foydasi ikki barobar ko'paydi. Kuzning uch oyida do'konga qancha foyda bo'ldi?

4. Muslima yangi koftasiga tugma sotib oldi. Bitta tugmaning narxi 2 300 so'm.

a) Muslima 6 dona tugma uchun qancha to'laydi? 10 ta, 100 ta tugma uchun-chi?

b) Muslima n dona tugma uchun qancha to'laydi?

d) n = 60 bo'lsa, tugmalar narxini hisoblang.

5. Masalalarga mos ifodalar tuzing. Ularning qiymatlarini noma'lumlarning berilgan qiymatlarida hisoblang.

a) Ahmad har biriga 800 so'mdan sarflab, niqoblar yasadi. Ularni 600 so'mdan sotishga muvaffaq bo'ldi. U n ta niqobni sotishdan qancha zarar ko'rdi? (n = 70)

b) Muslima buyumlarni bezatish uchun tasma sotib olishga p so'm ajratdi. U bir metri 600 so'mdan 3 metr qizil tasma sotib oldi. Unda qancha pul qoldi? (p = 5 000)

6. Do'kon soat nechada ochilishini va nechada yopilishini soatlar bo'yicha aniqlang. Smenalar o'rtasidagi oraliq vaqt qancha davom etadi?



1-smenaning boshlanishi



1-smenaning oxiri



2-smenaning boshlanishi



2-smenaning oxiri

7. Taqqoslang.

7 h 35 min ☐ 455 min

8 h 10 min ☐ 500 min

6 h 32 min ☐ 272 min

12 h 02 min ☐ 722 min

8. Bahrom soat 5:00 da baliq xo'jaligiga baliq olish uchun ketadi. U baliqni 6:30 da do'konga olib boradi. Do'kon soat 7:00 da ochiladi va 14:00 gacha ishlaydi. 14:00 da do'kon yopiladi va Bahrom xarajatlar va daromadni hisoblash uchun yana bir soat qolib ketadi. Bahromning ish kuni qancha vaqt davom etadi?

9. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

a) 245 soniga 156 va 4 sonlari ko'paytmasini qo'shing.

b) 1 876 sonidan 228 va 3 sonlari ko'paytmasini ayiring.

d) 928 va 756 sonlari ayirmasini 6 ga ko'paytiring.

e) 177 va 205 sonlari yig'indisini 7 ga ko'paytiring.

10. Do'konda dushanba, juma kunlari yoki oyning toq sanalarida chegirmalar bo'ladi. Bu do'kondan ketma-ket keladigan eng ko'p qaysi kunlarda chegirmali mollarni sotib olish mumkin bo'ladi?

11. To'g'ri tartibda hisoblang. Korxonada foyda va zararni hisoblash bilan kim shug'ullanadi?

$(640 : 8 + 1\,200 : 40) \cdot 12 + 2 \cdot (650 - 249)$

B	1 320	**E**	1 240	**Ch**	802	**H**	80	**L**	80
I	30	**O**	401	**P**	2 042	**S**	110	**I**	2 122

12. Masalalarga mos ifodalar tuzing. Ularning qiymatlarini noma'lumlarning berilgan qiymatlarida hisoblang.

a) Aziza 3 oyda 18 ta bosh kiyim to'qidi. Agar u xuddi shunday tezlikda ishlasa, necha oy ichida t ta bosh kiyim to'qishi mumkin? ($t = 30$)

b) Madina do'konni tozalashda otasiga yordam beradi. Otasi Madinaga ish kunlari tozalagani uchun m so'm, dam olish kunlari ishlagani uchun n so'm to'ladi. Madina bir haftada qancha pul topdi? ($m = 8\,000$, $n = 12\,000$)

39. Soatlar, minutlar, sekundlar

Yondosh mavzu:
Ish kuni

Vaqt,
arifmetik amallar
xossalari





1. Madina maktabga 8:00 da keladi va 15:00 da uyiga ketadi. Uning o'qish vaqti soatlarda qancha bo'ladi? Minutlarda-chi?



Vaqt soat, minut va sekundlarda o'lchanadi.
Bir soatda 60 minut va bir minutda 60 sekund bor.

1 h = 60 min
1 min = 60 s

2. Necha minut bor:

6 soatda	10 soatda	2 kunda
15 soatda	300 sekundda	1 haftada

3. Necha sekund bor:

10 minutda	1 soatda	67 minutda
43 minutda	5 soatda	1 kunda

4. Bir sutkada 24 soat bor. Bir sutkada necha sekund borligini hisoblang. Qaysi biri uzoqroq davom etadi: bir sutkami yoki 86 500 sekundmi?

5. O'qituvchiga ish vaqtining bir minuti uchun 290 so'm to'lanadi. Agar o'qituvchi bu oyda kuniga 8 soatdan 25 kun ishlagan bo'lsa, uning oylik maoshi qancha bo'ladi?

6. 322 578 + 789 456 = 1 112 034 ekanligini bilgan holda quyidagilarni toping.

322 579 + 789 456 | 322 579 + 789 455 | 322 578 + 789 455


322 578 + 789 458 | 322 588 + 789 446 | 322 568 + 78 446

7. Qaysi film uzoqroq davom etishini aniqlang.

Boshlanadi: 19 : 20 Tugaydi: 21 : 10	Boshlanadi: 17 : 30 Tugaydi: 18 : 50	Boshlanadi: 11 : 50 Tugaydi: 12 : 20

8. Bu to'rtburchakning tomonlari uzunliklarini o'lchang va uning perimetrini santimetr va millimetrlarda toping.

Bu ko'pburchakning o'tkir, to'g'ri yoki o'tmas burchaklari bormi?



9. Tomonlari 4 cm 6 mm, 5 cm 7 mm va 6 cm 3 mm bo'lgan uchburchakning perimetrini toping. Bu uchburchakning burchaklari qanday?

10. Elektr poyezd Janubiy vokzaldan yo'lga chiqdi va Xo'jakent stansiyasiga yetib keldi. Poyezd necha minut yo'l yurdi?



Chiqish vaqti



Kelish vaqti

11. Hisoblang.

a) 5 h 13 min – 2 h 46 min
b) 14 h 56 min + 2 h 47 min
d) 7 min 25 s + 3 min 45 s
e) 16 min 24 s – 8 min 55 s

12. Damir har oy 31 kundan iborat bo'lgan o'z taqvimini o'ylab topdi. U birinchi yanvardan boshlab, har kuni taqvimidagi keyingi sanani chizib qo'yadi. 25-oktabr kuni u qaysi sanani chizib qo'yadi?

13. Amal tartibini belgilang va hisoblang.

a) $9 \cdot 4 : 1 + (80 - 8 \cdot 8) : 4 + 0 \cdot 12$;
b) $345 \cdot (865 - 864) : 1 + (565 - 547) \cdot 0 - 9 \cdot (765 - 760)$.

14. Quyidagicha ifodalang:

a) 76 minutni sekundlarda;
b) 5 sutkani minutlarda;
d) bir yilni soatlarda;
e) 2 haftani minutlarda;
f) mart oyini soatlarda;
g) 7 200 sekundni minutlarda.


Biz nimalarni o‘rgandik?

Biz yaxlit sonlarni ko‘paytirishni o‘rgandik.

1. To‘plamlarda qanchadan pul borligini hisoblang.



73 ta kupyura



30 ta kupyura



60 ta kupyura



80 ta kupyura



70 ta kupyura



90 ta kupyura

Biz katta sonlarni ko‘paytirishni o‘rgandik.

2. Ko‘paytirishni qulay usulda bajaring.

$$\begin{array}{r} 24\ 567 \\ \times\ 75 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 408\ 507 \\ \times\ 316 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 60\ 400 \\ \times\ 5\ 000 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 28 \\ \times\ 74\ 800 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 64 \\ \times\ 116\ 789 \\ \hline \end{array}$$

Biz narx, miqdor, xarajatlar bir-biriga qanday bog‘liqligini bilib oldik.

3. Maktab uchun 3 200 so‘mlik 578 ta foto qog‘oz va 13 700 so‘mlik 97 ta foto ramka sotib olindi. Xaridning umumiy qiymatini toping.

Biz xaridlarning narxini aniqlashni o'rgandik.

4. Uyni ta'mirlash uchun qancha pul kerakligini hisoblang.

	Bahosi	Miqdori	Narxi
Suvoq materiali	28 000 so'm/qop	23 qop	
Kafel yelimi	36 500 so'm/kg	125 kg	
Kafel	330 so'm/m^2	25 m^2	
Gulqog'ozlar	715 000 so'm/o'ram	7 o'ram	
Bo'yoq	31 450 so'm/banka	4 banka	

Biz soatlar, minutlar, sekundlar bilan ishlashni o'rgandik.

5. Soatlar necha soat, minut va sekundni ko'rsatayotganini yozing.





6. Quyidagicha ifodalang:

a) 21 minutni sekundlarda;
b) 6 kunni soatlarda;
d) 2 soatni sekundlarda;
e) 3 haftani soatlarda;
f) iyun oyini soatlarda;
g) 2 yilni soatlarda.

7. Hisoblang.

8 h 46 min + 3 h 59 min
45 h 18 min – 37 h 38 min
5 min 12 s – 3 min 54 s
24 min 56 s + 17 min 43 s

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

1. Takrorlash. 1 dan 100 gacha sonlar 4
2. Takrorlash. Uch xonali sonlar 7
3. Takrorlash. Uzunlik 10
4. Takrorlash. Ko‘paytirish 13
5. Takrorlash. 0 va 1 sonlarining xossalari 16
6. Takrorlash. Nol bilan tugaydigan sonlar 19
7. Takrorlash. Taqsimot xossasi 22
8. Takrorlash. Soat va minutlar 25
9. Takrorlash. To‘g‘ri to‘rtburchak 28
10. Ko‘p xonali sonlar. 31
11. Pozitsion sanoq sistemasi. 34
12. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi. 37
13. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi. 40
14. Ko‘p xonali sonlarni taqqoslash. 43
15. Xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi. 46
16. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish 49
17. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish 52
18. Ko‘p xonali sonlarni ayirish. 55
19. Ko‘p xonali sonlarni ayirish. 58
20. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish 61
21. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish 64
22. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish va ayirish 67

Yakuniy dars. 70

23. Sonlarni 10, 100, 1 000 ga ko‘paytirish va bo‘lish. 72
24. Yaxlit sonlarni ko‘paytirish. 75
25. Yaxlit sonlarni bo‘lish. 78

26. Ikki xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish. 81
27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish. 84
28. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish. 87
29. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish. 90
30. Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish. 93
31. Ko'p xonali sonni ikki xonali songa ko'paytirish. 96
32. Ko'p xonali sonni uch xonali songa ko'paytirish. 99
33. Yaxlit sonlarni ko'paytirish. 102
34. O'rtasida nol bo'lgan sonlarni ko'paytirish. 105
35. Masalalar yechish. 108
36. Masalalar yechish. 111
37. Narx, miqdor va qiymat. 114
38. Masalalar yechish. 117
39. Soatlar, minutlar, sekundlar. 120
Yakuniy dars. 123

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

I.V.Repyova
Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism. / I.V.Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 128 b.

UO'K 51(075.3)
KBK 22.1ya72
R 42

ISBN 978-9943-9684-5-5

Repyova Irina Vladimirovna

Matematika
3-sinf
I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*N.Gaipov, M.Maxmadaminova*
Badiiy muharrir	*A.Sobitov*
Musahhih	*X.Serobov*
Rassomlar:	*A.Pan, T.Daminov, R.Ismailova*
Kompyuterda sahifalovchi	*O.Sava*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60×84/8. Kegli 14 n/shponli.
"Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz.
Shartli b.t. 16. Hisob-nashriyot t. 2,73.
Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-312.
"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.